

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'zbek tilshunosligi kafedrasi

PRIMOVA MAHBUBA SHOKIROVNANING

5.220100- "O'zbek filologiyasi" ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavri darajasini
olish uchun yozilgan (IV-kurs 44 -guruh)

"ALISHER NAVOIYNING «MAJOLISUN-NAFOIS» ASARI
LEKSIKA
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar _____ dots. Jumayev T.

"Himoyaga tavsiya etilsin"
O'zbek tilshunosligi kafedrasi
mudiri _____ dots. X. Jabborov
“___” _____ 2017

QARSHI-2017

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	3
K i r i sh.....	6
Birinchi bob: Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarining leksik xususiyatlari	8
1-§. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari so‘z boyligining miqdoriy ko‘rsatkichlari.....	8
2-§. So‘zlarning tarixiy-etimologik qatlamlari.....	13
2.1. Turkiy so‘zlar qatlami	13
2-§. Arabcha so‘zlar qatlami	18
2.3. Eroniy so‘zlar qatlami.....	21
Ikkinchchi bob: Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati	32
1-§. O‘TILda qayd qilingan bo‘lib, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida uchraydigan so‘zlar	32
1.1.Turkiy so‘zlar qatlami	32
1.2.Eroniy so‘zlar qatlami.....	41
1.3.Arabiy so‘zlar qatlami.....	42
1.4. Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarida qo‘llangan dublet so‘zlar.....	45
1.5. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida qo‘llangan onomastik birliklar.....	47
1.6. Shoirlar nomlari.....	50
1.7.Shoirlarning hayoti va ijodi bilan bog‘liq shaxs nomlari.....	51
1.8.Majolisun-nafois”da qo‘llangan asar nomlari.....	52
1.9.Majolisun-nafois”da qo‘llangan toponimlar.....	53
Umuviy xulosa.....	54
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	57
Illova.....	59

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Alisher Navoiy ijodi shunday ummonki, uni lisoniy jihatdan o‘rganish tadqiqotchidan juda ko‘p narsalarni bilishni talab qiladi. O‘zbek tilining bugungi taraqqiyot yo‘lini Navoiy asarlari tilisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tilimizning bugungi kamolotini belgilash uchun uning barcha taraqqiyot davrlari kabi XV-XVI asrlar, xususan, eski o‘zbek tilning yorqin namunalaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarining o‘rni beqiyosdir.

Mavzuning dolzarbligi. Alisher Navoiyning ijodi va uning til xususiyatlari qariyb uch asrdan buyon dunyo turkiyshunoslari tomonidan juda chuqur va atroflicha o‘rganilgan. Shu dadqiqotlarga suyangan holda biz asarning leksik jihatini talqin qilishga va uning nisbatini hozirgi o‘zbek tili me’yorlariga solishtirishga intildik. Bu intilish tilshunosligimiz uchun bir qadar lisoniy xulosalarni keltirib chiqarish imkoniyatlarini yaratdi.

Shuning uchun ham "Majolisun-nafois" leksikasini shu davrda yaratilgan asarlar lug‘aviy boyligi bilan qiyoslab o‘rganilganda, tadqiqotchiga qimmatli ma’lumotlar beradi.

Ikkinchidan, "Majolisun-nafois" asarida qo‘llangan so‘zlarning TEQ (tarixiy etimologik qatlam)larga munosabati bir xil emas. Turkiy so‘zlarning adadi son jihatidan eng kam bo‘lsa-da (584 so‘z yoki 13,7 foiz), o‘zlashma so‘zlar orasida dominantalik vazifasini o‘tagan va matn yaxlitligini ta’minlagan.

Uchinchidan, "Majolisun-nafois" leksikasini sistem leksikologik nuqtai nazardan tahlil etish XV asr yozma yodgorliklari lug‘aviy boyligiga umumiyl, haqqoniyl baho berilishiga imkon beradi. Chunki "Majolisun-nafois"dagi mavzuviy va so‘zlarning lug‘aviy ma’no guruhlari, sinonimik qatorlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik va farqlar faqatgina sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingandagina oydinlashadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi "Majolisun-nafois" leksikasini sistema sifatida o‘rganishdir. Bunda ayrim leksik birliklarning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini aniqlash, nutqiy va lisoniy ma’nolarning ro’yobga chiqishini

o‘zaro bog‘liq hodisa sifatida tahlil etishdir. Shuningdek, "Majolisun-nafois" so‘z boyligini tarixiy etimologik qatlamlarga ajratib, har bir leksik mikrosistemaning a’zolarini etimologik jihatdan u yoki bu tillar leksikasiga mansubligini aniqlash, shunda hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi taraqqiyot bosqichlarini belgilashdir. Ushbu ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

"Majolisun-nafois" lug‘aviy boyligini o‘zaro bog‘liq va barqaror leksik mikrosistemalarga bo‘lib, bir butun sistema holida o‘rganish;

—leksik birliklarning til va nutq dixatomiyasida tutgan o‘rnini aniqlash;

—asardagi so‘zlarni tarixiy-etimologik qatlamlarga ajratish va shu asosda turkiy va o‘zlashgan so‘zlarning ma’no taraqqiyotini belgilash;

—"Majolisun-nafois" dagi leksik birliklarni qadimgi turkiy til, Muhammad Solih asarlari tili va hozirgi o‘zbek tili faktlari bilan chog‘ishtirish va shu asosda asar lug‘aviy boyligining o‘ziga xosxususiyatlarini aniqlash;

—Alisher Navoiyning so‘z ustaligi, so‘z stilistik imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish mahoratini belgilash;

—"Majolisun-nafois" leksik birliklarini so‘zlarning lug‘aviy-mavzuviy guruhlariga ajratish;

- asar leksikasini sanash /statistik/ da o‘rganish."Majolisun-nafois"da qo‘llanilgan leksemalar, so‘z shakllari miqdorni aniqlash;

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi shundaki, ishda o‘zbek tilshunosligida "Majolisun-nafois" leksikasi sistem-struktur tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilib, leksik birliklarni serqirra hodisa sifatida o‘rganish va ularning ma’no taraqqiyoti ochib berishdan iborat. Shunga muvofiq leksemalarni tarixiy - etimologik qatlamlarga ajratish orqali turkiy va o‘zlashgan so‘zlarning miqdori va ma’no taraqqiyoti belgilandi.

Majolisun-nafois" lug‘aviy boyligi bitiruv malakaviy ishida shu davrda yaratilgan boshqa asarlar leksikasi bilan qiyoslab o‘rganildi va shu asosda XV asrdagi eski o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatları aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy xulosalaridan o'rta maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga Navoiy ijodini o'qitishda foydalanich mumkin. Shuningdek, oliy oquv yurti talabalariga til tarixi fani boyicha amaliy, seminar mashg'ulotlar otishda qo'llanma bo'lishi mumkin.

Isnning ilmiy yangiligi. Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" asari shu paytgacha ilmiy jamoatchilik tomonidan ko'p marta o'rganilgan. Bizning bitiruv malakaviy ishimizda bu asar tilida qo'llangan so'zlar ko'lami system-struktur planda birinchi bor o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishi materiali qilib, Alisher Navoiy asarlarining mukammal asarlari nashrining beshinchi tomida berilgan "Majolisun-nafois" asari matni olindi.

Bitiruv malakaviy ishi metodologiyasi va tahlil usullari. Dialektik materializm ta'limotiga tayanib, biz tilning ong shakli /formasi/ sifatida ikkilamchi, bog'liqning esa birlamchi ekanligiga tayanamiz. Shunga asoslanib, "Majolisun-nafois" lug'aviy boyligiga, undagi so'zlar vositasida ifodalangan ma'nolarga o'sha davr ijodkorlari hayotini to'g'ri aks ettiruvchi vositalar sifatida yondashamiz

Ishning tuzilishi va mundarijasi. Bitiruv malakaviy ishi kompyuterning Timmes New Roman yozuvida 14 o'lchamli shiriftda 57 betni tashkil qilib, kirish, 2 bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati iborat.

KIRISH

“Inson qalbining quvonchu-qayg‘usini ezgulik va hayot mazmunini Alisher Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz” deb ta’kidlagan edi muhtaram prezidentimiz I.A.Karimov¹.

“Umumiy o‘rta ta’limdan boshlab o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’limgacha bo‘lgan bo‘g‘inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o‘z ichiga olgan yaxlit uzlusiz ta’lim tizimini shakllantirish ishlari izchil davom ettirilganini ta’kidlamoqchiman”². Muhtaram prezidentimiz I.A.Karimovning bu so‘zları vatanimizda uzlusiz ta’limga qanday e’tibor berilayotganligidan guvohlik berib turibdi. Shuningdek, she’riyat mulkining sultonı, buyuk bobomiz Alisher Navoiy va uning ijodi ham hech qachon mustaqillik davridagidek qadrlanmagan. Shuning uchun ham muhtaram yurtboshimiz: “Inson qalbining quvonchu-qayg‘usini ezgulik va hayot mazmunini Alisher Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz” deb ta’kidlagan edi³.

¹ I.A.Karimov.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 3–4.

² Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi 2012-yil 20-yanvar.

³ I.A.Karimov.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 3–4.

Адабиётимиз тарихида Алишер Навоий анъаналарини давом эттириб, ўзбек адабийтилининг тараққиёти учун хизмат этган адибларимиз талай. Шуларнинг бири – XVIII асрнинг охири XIX аср бошларида Фарғона водийсида яшаб ижод этган моҳир қаламкаш Гулханийдир.

“Mana, sal kam bir yildirki, O‘zbekistonimizda, O‘rta Osiyoda barcha Sharq xalqlari tomonidan nishonlanayotgan Alisher Navoiyning umr va ijod to‘ylari – qutlug‘ ma’raka davom etmoqda. Bu to‘y millat bayramidir. Qadriyatimizni yana bir bor ulug‘laydigan bayramdir.

Bu to‘y xalqimiz, O‘zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etadi.

Alisher Navoiy yili deb e’lon qilingan 1991-yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlug‘ keldi va o‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan bo‘lib qoldi”⁴- deb uqtirgan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston Milliy bog‘ida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan barpo etilgan haykalning tantanali ochilish marosimida so‘zlagan nutqida. Shu bois ham Navoiy asarlarini har jihatdan o‘rganish bugungi tilshunosligimizning ham eng dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlarining leksik xususiyatlarini yoritishda va bu bo‘limning tarkibiy qismi bo‘lgan «Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari qiyosiy-lug‘aviy ko‘rsatkich»ni tuzishda alohida yodgorlik leksikasini maxsus tadqiq qilgan va uning qiyosiy lug‘atini tuzgan olimlar izidan bordik. Shu bilan birga, til tarixi tadqiqotchilarining bir xil asosda turli davr yodgorliklarining mukammal qiyosiy lug‘atlarini tuzish o‘zbek tarixiy leksikologiyasi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni berish bilan birga mavjud tarixiy lug‘atlarimizni to‘ldirish uchun muhim va tayyor material beradi degan fikriga to‘la-to‘kis qo‘shilamiz.

Ko‘zlagan maqsadimizga muvofiq ishimiz quyidagi ichki bo‘linmalardan iborat bo‘ladi:

I. 1. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarining miqdoriy ko‘rsatkichlari.

⁴ “Xalq so‘zi” gazetasi, 1991-yil, 1-oktabr. I.A.Karimov. O‘zbekiston mustaqillikka erishish arafasida. Toshkent, 2011. 401–403-betlar.

2. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari leksikasining tarixiy etimologik qatlamlari.

3. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari va «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (O‘TIL) uchun mushtarak bo‘lgan so‘zlar.

6. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida qo‘llanib, O‘TILga kirmagan so‘zlar:

1) eskirgan so‘zlar;

7. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida so‘zlarning fonetik variantlari.

II. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida qo‘llangan onomastik birliklar:

a) shaxs nomlari;

б) asar nomlari;

в) joy nomlari;

г) shoirlar nomi.

Birinchi bob

ALISHER NAVOIYNING «MAJOLISUN-NAFOIS» ASARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

1-§. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari so‘z boyligining miqdoriy ko‘rsatkichlari

Leksikani statistik jihatdan o‘rganish mashaqqatli va og‘ir ekanligi hammaga ma’lum. Natijalari atigi bir betda umumlashtirilishi mumkin bo‘lgan miqdoriy ko‘rsatkichlar izlanuvchidan yillab qilinadigan og‘ir mehnatni taqozo etadi. Biz ham shu mashaqqatli ish bilan shug‘ullanib, Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarlari leksikasi bo‘yicha quyidagi miqdoriy ko‘rsatkichlarni qo‘lga kiritdik: asarda hammasi bo‘lib 40 914 so‘zshakl ishlatilgan. Qo‘llangan so‘zlar 4260 lug‘at birligi – leksemani tashkil etadi. Demak, o‘rtacha so‘z qo‘llanish chastotasi 12 marta ekanligi ko‘rsatadi (albatta, bu umumiylar so‘zlar hisobidan). Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida atigi bir bor ishlatilgan *atodorliq xulqlik//xulqluq, xiraliq, vujudluq, tiyralik, telbalardek, taxayyulluq, tavrlig//tavrlik, tavrliq, tasarrufluq, taqvimdek* kabi so‘zlar bilan bir qatorda necha yuz martalab ishlatilgan *emoq* to‘liqsiz fe‘li, *bo‘lmoq, qilmoq, etmoq* kabi yordamchi fe’llar, shaxs va ko‘rsatish olmoshlari, *amakizoda, anjumsipoh, arzadosht, badmaosh, beadabona, beedadona, farog‘atdo‘st, faylasufvash, g‘arobatjo* y kabi fors-tojikcha so‘zlar ham qo‘llangan.

Bu 4260 leksema tarixiy-etimologik jihatdan quyidagicha taqsimlangan:

2. 1. Turkiy so‘zlar – 926 ta (umumiylar leksikaning 21,7 foizini tashkil etadi).
3. Arabcha so‘zlar - 1661 ta (39 foiz).
4. Fors-tojikcha so‘zlar - 781 (15,6 foiz).
5. Aralash holdaga so‘zlar - 538 ta (12,6 foiz):
 - a) arabiylar - turkiy so‘zlar - 79 ta (1,9 foiz).
 - b) eroniylar - turkiy so‘zlar - 49 ta (1,1 foiz);
 - v) arabiylar - eroniylar - turkiy so‘zlar - 214 ta (2 foiz);
 - g) arabiylar - eroniylar (kelib chiqishi jihatidan arabcha, ammo fors-tojikcha yasovchi qo‘pshmchalar bilan hosil bo‘lgan so‘zlar) - 236 ta (2,9 foiz).

Demak, ma’lum bo‘ladiki, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» leksikadagi turkiy so‘zlar (21,7 foiz, aralash holdagi so‘zlarni hisobga olmaganda)

ning miqdori arabcha va fors-tojikcha so‘zlarning adadidan (64 foiz) ancha past. Qo‘llangan 4260 leksemaning 2996 tasi (70,3 foiz) hozirgi o‘zbek adabiy tilida va shevalarda uchraydi, qolgan 1264 ta so‘z hozirga o‘zbek kitobxoni uchun eskirgan bo‘lib, umumiy leksemalarning 29,7 foizini tashkil qiladi.

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois»dagi mavjud leksemalarni «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» ga nisbatan olib qarasak, 1755 leksema (41,2 foiz) lug‘at fondidan o‘rin olganli, 2505 leksema (58,8 foiz) mazkur lug‘atda uchramasligini ko‘ramiz. Shundan:

- a) eskirgan so‘zlar - 1264 ta (29,7 foiz);
- b) nomlar - 892 ta (20,9 foiz).

Bundan tashqari, bu yodnomalarda quyidagi 52 ta dubletlar (fonetik farqli so‘zlar) mavjud: *adil* // *adl*, *asil*//*asl*, *ato*//*ota*, *avvalgi*//*avvalg*‘I, *ayog*‘//*ayoq*, *chog’lik*//*chog’liq*, *diljo* ‘ylug’//*diljo* ‘yluq’, *doyim*//*doim*, *ekan*//*ekon*, *erkan*//*erkin*, *gado*//*gadoy*, *iki*//*ikki*, *inilik*//*iniliq*, *jome*//*jome*‘, *jumla*//*jumlat*, *ko‘ngil*//*ko‘ngul*, *madadkorlig*‘//*madadkorliq*, *misra*//*misra*‘, *mo*‘//*mo*, *mushkil*//*mushkul*, *musohiblig*‘//*musohibliq*, *mutaallaq*//*mutaalliq*, *naqqoshlik*//*naqqoshliq*, *nogah*//*nogoh*, *nomurodlig*‘//*nomurodliq*, *o‘g‘il*//*o‘g‘ul*, *o‘ttiz*//*o‘ttuz*, *odamiylik*//*odamiyliq*, *ortug*‘//*ortuq*, *qarong‘u*//*qaronqu*, *qasoid*//*qasoyid*, *qattig*‘//*qattiq*, *qullug*‘//*qulluq*, *qullug*‘//*qulluq*, *sho‘xlik*//*sho‘xluq*, *shoirlik*//*shoirliq*, *tab’lik*//*tab’liq*, *taollo*//*taolo*, *tatabbu*//*tatabbu*‘, *tavrlik*‘//*tavrlik*, *tegra*//*tegru*, *tib*//*tibb*, *vayron*//*vayrona*, *vojib*//*vojub*, *xirman*//*xirmon*, *xubliq*//*xublug*‘, *xulqlik*//*xulqluq*, *yigirma*//*yigirmi*, *yomonlik*//*yomonluq*, *yorlig*‘//*yorliq*, *yorug‘lik*//*yorug‘lug*‘, *zamon*//*zamona*, *zaxim*//*zaxm* mavjud bo‘lib, ularning 18 tasi turkiy, 28 tasi arabiyl, va 5 tasi eroniy tarixiy-etimologak qatdam (TEQ)ga oid so‘zlardir. Yodgorliklarda qo‘llangan atoqli otlarning 732 tasi kishi nomlarini (antroponimlarni): shundan 287 tasi shaxs nomlari, 445 tasi shoirlar nomi, 102 tasi joy nomlarini (toponimlarni), 58 tasi asar nomlarini tashkil qiladi. Biz o‘z ishimizda bu haqda to‘xtalib o‘tirmadik, chunki bu xususda qator ilmiyishlarda yetarlicha ma’lumot berilgan.

Bu ma'lumotlarni quyidagi jadvatda umumlashtirilishi mumosh: (1-jadval). Endi miqdoriy ko'rsatkilari 1-jadvalda keltirshgan lug'aviy guruhlarning tahlili ustida to'xtalamiz.

Tarixiy etimologik qatlamlar o'zbek va turshshunoslik leksikografiya va leksikologiyasida ancha mufassal o'r ganilgan.

X-XIX asr adabiy tili uchun asosan uch tarixiy qatlam xosdir:

- 1) turkiy qatlam;
- 2) arabiq qatlam;
- 3) eroniq qatlam.

Shubhasizki, bu qatlamlar ichida juda qadimgi davrlardan boshlab xalqimiz tilida qo'llanib kelinayotgan xitoycha, so'g'dcha, yunoncha, mo'g'ulcha, hindcha kabi tarixi tamoman boshqa tillarga borib taqaladigan so'zlar ham bor. Lekin bunday so'zlarni alohida guruhlarga ajratish ham munozarali, ham fan uchun ahamiyati kamdir. Chunki o'zbek xalqi qech qachon yunonlar bilan bevosita aloqada bo'l magan va ulardan so'z qabul qilib, ularga so'z bermagan. Bunday so'zlar tilimizga arablar tomonidan o'tgan, shuning uchun ularni arabiq so'zlar sifatida baholash lozim. Shu bois ham biz Alisher Navoiy asarlari lug'at boyligini uch asosiy qatlamga ajratdik:

Turkiy so'zlar 584 ta (13,7 foiz).


Arabiq so'zlar 1661 ta (39 foiz).

Eroniy so'zlar 545 ta (12,8 foiz).

Shuningdek, aralash so'zlar ham mavjud bo'lib, ular 578 ta (13,6 foiz)ni tashkil etadi.

	i	so	:	b	g'	a	h	a	n	Nomlar
--	---	----	---	---	----	---	---	---	---	--------

Jami so'zlar	arabiy- troniy so'zlar	sof erony so'zlar	Eroniy so'zlar	Ara diy sso'zlar	arabiy- erony so'zlar	erony- turkiy so'zlar	arabiy- turkiy so'zlar	sof turkiy so'zlar	Turkiy sso'zlar
3368	236	545	781	1661	214	49	79	584	926
79	2,9	12,8	15,6	39	2	1,1	1,9	13,7	21,7
325									<i>Soni</i>
7,6									<i>Foiz</i>
1755									<i>Soni</i>
88									<i>Foiz</i>
1264									<i>Soni</i>
29,7									<i>Foiz</i>
287									<i>Soni</i>
6,7									<i>Foiz</i>
58									<i>Soni</i>
1,4									<i>Foiz</i>
102									<i>Soni</i>
2,4									<i>Foiz</i>
445									<i>Soni</i>
10,5									<i>Foiz</i>



2-§. So‘zlarning tarixiy-etimologik qatlamlari

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asaridaga bu ko‘rsatkichni lug‘at boyligi aniq sanalgan Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asari bilan solishtirsak, quyidagi dalillarni ko‘rsatadi

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida turkiy so‘zlar miqdori 13,7 foizni tashkil etadi (o‘zlashgan qatlam so‘zlari bilan birgalikda) “Shayboniynoma” asaridagidan ikki yarim marta pastdir. Bu holatning sababi «Majolisun-nafois» da 431 ta fors-tojik tilida ijod qilgan 494 fors-tojikcha baytlarning keltirilgani hamda 1470 (34,5 foiz) atoqli otlarning qo‘llanganligidadir.

Alisher Navoiy qo‘llagan so‘zlarning 1938 tasi, ya’ni 45,5 foizi O‘TILga kiritilgan.

2.1. Turkiy so‘zlar qatlami

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida, yuqorida ta’kidlaganimizdek, turkiy TEQga oid so‘zlar 584 ta (13,7 foiz) bo‘lib, aralash so‘zlardan: arabiyy-turkiy 79 ta (1,9 foiz), eroniy- turkiy 49 ta (1,1 foiz), arabiyy-eroniy-turkiy so‘zlar 214 ta (2 foiz) dir.

Asardagi turkiy TEQ ga mansub 691 so‘zlar ma’no jihatidan nihoyatda xilmal xildir. Ular tahlil etilganda alohida sohaga oid nomlarni tasnif qilish unchalik ma’qul bo‘lmaydi. Chunki 4260 so‘zdan 524 tasi 12,3 foizigina sof turkiycha so‘zlarni tashkil qiladi.

Sof turkiy so‘zlar: *adoq, yog // ayoq, ayla-, aylan-, ayrik-, ayru, ayt, aka, anga, angla-, anda, andoq, ancha, aro, asra-, asru, ato (ota), achchiq, aya-, barmoq, barcha, ber-, beri, berk, biz, biyik, bil-, bilan, bir, bir-bir, birdam, bir-, ikki, birla, birov, biror, bit-, biti-, bitikchi, bog‘la-, bog‘liq, boq-, bor, bor-, bora, bori, boricha, borcha, bos-, bot, bosh, bosh-, boshicha, boshqa, boshla-, boshlig‘, boshtin-ayoq, bu, buz-, buzug‘lig‘, bukun, bo‘l-, bo‘lg‘udek, bulut, burun, burung‘i, butmak, buyur-, bo‘y, buyla, bo‘yun, dag‘i, de-, dimog // dumog‘, dog‘i, doyim//doim, ye-, yel, yel-, yolin, yemak, yomg‘ur, yemir-, yeng-, yer, yerlik, yet-, yetti, yovush-, yog‘-, yog‘in, yoz-, yoy, yoyil-, yoq-, yolg‘on, yolg‘uz, yomon, yomonla-, yomonlik//yomonluq, yon, yon-, yonchoq, yop-, yor-, yora,*

yorlig // *yorliq*, *yormaq*, *yoron*, *yorsiz*, *yorug* ‘, *yoruglik*//*yoruglug* ‘, *yorut-*, *yot-*, *yosh*, *yoshlik*, *ila*, *ilik*, *in-*, *inilik*//*iniliq*, *ini*, *irin*, *is*, *isla-*, *islik*, *ista-*, *it-*, *ich-*, *ichguvchi*, *ichirgandek*, *ichkuchi*, *ichra*, *ish*, *yibor-*, *yig'il-*, *yigirma*//*yigirmi*, *yigit*, *yigitlik*, *yig'ishtur-*, *yig'la-*, *yiqil-*, *yil*, *yilliq*, *yiroq*, *yo'q*, *yo'qlug* ‘, *yo'l*, *yo'luq* ‘, *yo'sin*, *yo'sunluq*, *kabi*, *kez-*, *keyin*, *kel-*, *kes-*, *ket-*, *kech-*, *kecha*, *kechimlik*, *kiyiz*, *kim*, *kimsa*, *kir-*, *kirpik*, *kichik*, *kichiklik*, *kishi*, *kiy-*, *ko'b*, *ko'z*, *ko'zgo* ‘, *ko'zidek*, *ko'zluk*, *kuy-*, *ko'k*, *ko'ks*, *kul*, *kul-*, *kulku*, *kumush*, *kun*, *ko'n-*, *ko'ngil*//*ko'ngul*, *ko'ngulluk*, *kunduz*, *kun*, *ko'p*, *ko'r-*, *ko'ra*, *ko'rub-ko'rmas*, *ko'tar-*, *kuch*, *kuchli*, *man*, *men*, *mendek*, *min-*, *ming*, *nayla-*, *net-*, *necha*, *nechuk*, *nechun*, *nimarsa*, *og'iz*, *og'a*, *og'ri-*, *oyoq*, *oz*, *ozroqcha*, *oy*, *oydek*, *oyin*, *oq-*, *ol*, *ol-*, *oli-da*, *olti*, *olti-yetti*, *omiylig* ‘, *ona*, *onsiz*, *oncha*, *ora*, *orqali*, *ort-*, *ortug* // *ortuq*, *os-*, *osonlik*, *ost*, *ot*, *ot-*, *ota*, *ota-ona*, *otar-tutar*, *otlan-*, *otlig* ‘, *och-*, *ochiq*, *osh*, *oshliq*, *pufla-*, *sakkiz*, *sakson*, *saqol*, *sana-*, *san*, *sanch-*, *sari*, *sarig* ‘, *sekkiz*, *sekri-*, *sekson*, *sen*, *sig* ‘-, *siz*, *sila-*, *silki-*, *sin-*, *sovur-*, *sovut-*, *sol-*, *soch-*, *suv*, *sug'ur-*, *sudra-*, *so'z*, *sun-*, *sur-*, *sustay-*, *so'r-*, *so'zla-*, *so'ng*, *so'nggi*, *so'ngok*, *so'ngra*, *so'nrag'i*, *tayog'la-*, *tanga*, *tangri*, *tani-*, *tarqal-*, *tashla-*, *teg-*, *tegra*//*tegru*, *tez*, *tezlik*, *teng*, *tengri*, *tengriliq*, *tep-*, *tiy-*, *til*, *tila-*, *til-*, *tin-*, *tirguz-*, *tirik*, *tog* ‘, *toy-*, *tom-*, *ton-*, *tong*, *top-*, *topshir-*, *toriq-*, *tort-*, *tortquvchi*, *tosh*, *toshqari*, *tub*, *tug* ‘-, *tuga-*, *tuganchi*, *tuz*, *tuz-*, *tuzat-*, *tuzguchi*, *tuk*, *tul-*, *tun*, *tur-*, *turk*, *turkman*, *turkcha*, *tur-*, *tut*, *tut-*, *tutash-*, *tufrog* ‘-, *tush-*, *tutosh-*, *to'k-*, *to'y*, *to'qquz*, *to'qson*, *to'la*, *to'lun*, *to'n*, *to'r*, *to'rt*, *u*, *uyot*, *uz-*, *uzra*, *o'z-o'zi*, *uzun*, *uy*, *uyqu*, *uya*, *uylakim*, *o'yna*, *ulg'ay-*, *ulug* ‘, *ulus*, *ulcha*, *un*, *una-*, *unut-*, *ur-*, *urush*, *urush-*, *ust*, *uch*, *uchqun*, *o'chog* ‘, *uchun*, *uchur-*, *ushbu*, *ushmundoq*, *ushoq*, *uyu-*, *uyat*, *uyatlig* ‘, *chayna-*, *chaq-*, *chala*, *chal-*, *chek-*, *cherik*, *chiq-*, *chin*, *chirma-*, *chiroylilik*, *chog* ‘, *chog'ir*, *choglik*//*chogliq*, *chok*, *chol-*, *chop-*, *shu*, *shundoq*, *evrul-*, *ega*, *egalla-*, *egn*, *edi*, *ey*, *ekan*//*ekon*, *el*, *ellik*, *elt-*, *elchilik*, *emas*, *emdi*, *emish*, *en-*, *endi*, *er*, *er-*, *erdi*, *erish-*, *erkan*//*erkin*, *ermas*, *ermaslig* ‘, *ermish*, *ersa*, *erur*, *esa*, *et*, *et-*, *etak*, *eshak*, *eshik*, *eshit-*, *yubor*, *yuz*, *yuz*, *yuzlan-*, *yuzluk*, *yuqori*, *yumala-*, *yur-*, *yut-*, *yuxlaqu*, *yayoq*,

yakdastlik, yalang, yamog‘liq, yamon, yana, yangi, yanglig‘, yara, yarash-, yarim, yarmoq, yasa-, yasoq, yasol, yaxshi, yaxshi-yomon, yasha-, yashurun, o‘g‘il//o‘g‘ul, o‘g‘urla-, o‘z, o‘zbek, o‘k, o‘ksuk, o‘ksu-, o‘q, o‘qi-, o‘l-, o‘n, o‘p-, o‘rgan-, o‘rta-, o‘t, o‘t-, o‘tluq, o‘tru, o‘ttiz//o‘ttuz, o‘xsha-, o‘yun, qayon, qazoqlig‘, qazon, qay, qayg‘u, qaysi, qayt-, qalin, qani, qanot, qari, qariliq, qaro, qarong‘u//qaronqu, qarshiliq, qatiq, qattig‘//qattiq, qachon, qil, qilg‘ondek, qilg‘onlaricha, qilg‘uv, qilg‘udek, qil-, qiluvchi, qirq, qirog‘, qiron, qisqa, qoz-, qol-, qon, qon-, qotil-, qoch-, qosh, qo‘buz-, quyi, qo‘l, qullum‘//qulluq, qul-, quloq, qum, qo‘p-, quruq, qurchuq, qutqar-, qutul-, qo‘sh, qo‘y-, qo‘rg‘on, qo‘rq-.

Arabcha-turkiyicha so‘zlar: *avvalgi//avvalg‘i, avdatliq adablig‘//adabliq, aybsiz, astrabodlig‘ atvorliq, axloqlik, ahvollig‘, bul’ajablig‘, buxorolig‘, vafosiz, viqorliq, vujudlo‘q, da‘volik, devonalardek devonalig‘, devonboshi, diqqatlik, diqqatsozlig‘, jafochi, jurjonlik, jo‘nobodlig‘, zarofatliq, zarradek, zehnlik, zotlig‘, zulfidek, idrokliq, ilmliq, insoniyatlik, kabudjomalig‘, kamardo‘zliq, kamyogarlik, kotiblik, kohilliq, lavandlig‘, latofatlik, lollig‘, mabhutluq, mazasiz, mazlumshiorlig‘, mazmunluq, maylliq, manishlik, mashliq, matla‘dek, matla‘larcha, mahdiylik, mahoratlig‘, mahrumluq, mashg‘ulluq, mashrabliq, mashhadlig‘, minnatdorlig‘, mullolig‘, mutasavvirlig‘, muxovaraliq, muhovaraliq, naqqoshlik//naqqoshliq, nasabliq, nafsliq, niyozmandlig‘, odamiylik//odamiyliq, omiylig‘, oshiqliq, oshuftalig‘, ra‘nolig‘, sabodek, sabrsiz, savoddek, sahariydek, sahhoflik, simnonliq, sifotlig‘, sovaliq, suhbatliq, taaqqulluq, tabaslik, tabrizlik, tab‘lig‘//tab‘lik//tab‘liq, tavrlig‘//tavrlik//tavrliq, tayobodlig‘, taqvimdek, taxayyulluq, ta‘zimliq, telbalardek, tiyralik, turfaliq, turshizlik, uzrxohlig‘, xulqlik//xulqluq, shayxliq, shakllik, shikoyatpayvandlig‘, shiorliq, shirinadolliq, shoirlilik//shoirliq, shu‘badabozliq, qabuliyatlik, qalandarlik, qasidaxonliq, qobiliyatlig‘, quvvatlig‘, qullum‘//qulluq, g‘azlfurushluq, g‘amxorliq, g‘ariblik, hayotdek, hinducha, hiriylik, hofizaliq, hofizasicha, hullaboflig‘, hurmatlig‘.*

Forscha-turkiyicha so‘zlar: *sipohiylik*, *shogirdlig*, *sho‘xlik//sho‘xluq*, *yakdastlik*, *yamog‘liq*, *g‘unchadek*, *hushyorlig‘*, *badxo‘ylug‘*, *badshe‘rlik*, *barhamlig‘*, *bedillig‘*, *beixtiyorlig‘*, *beparvolig‘*, *betoblig‘*, *betoqatlig‘*, *bexudlig‘*, *behollig‘*, *bechoralig‘*, *birdam*, *bulbuldek*, *gustohlik*, *darveshlik//darveshliq*, *darveshxo‘yluq*, *darzigarlik*, *diljo‘ylug‘//diljo‘yluq*, *donoliq*, *jomabofliq*, *jonlig‘*, *zebolig‘*, *ziyoratgohliq*, *zorlig‘*, *kamlik*, *kamongarlik*, *kapanakpo‘shluq*, *kissado‘zluq*, *kordgarlik*, *kosagarlik*, *nomurodlig‘//nomurodliq*, *notavonlig‘*, *navisandalik*, *loladek*, *naqshbozlig‘*, *noziklik//nozukluk osonlik*, *parishonlig‘*, *podshohlig‘*, *pурго‘yliq*, *purkorlig‘*, *puxtalig‘*, *pushaymonlig‘*, *ravonlig‘*, *ranginlig‘*, *rasvolig‘*, *rahnamoyliq*, *sodalig‘*, *somonliq*, *sofliq‘*, *tanburachi*, *tirandozlik*, *farzandlig‘*, *xayolangezlik*, *xaymado‘zluq*, *xaroblig‘*, *xiraliq*, *xishtmolliq*, *xomlik*, *xorlig‘*, *xubliq//xublug‘*, *xudoroylik*, *xudroylik*, *xurusonliq*, *xushgo‘yliq*, *xushluq*, *xushxonliq*, *chechaktuluq*, *choshnilig‘*, *shaydolig‘*, *sharmandalig‘*, *sherozlik//sherozliq*, *shikastalik*, *shikoflig‘*.

Arabcha-forscha-turkiyicha so‘zlar: *ra‘nosifatliq*, *badfe‘lliq*, *besabablig‘*, *behijobliq*, *nuktapardozlig‘*, *naqqoshliqdek*, *faqrpeshalik*, *fanoandeshalik*, *xushtab‘lig‘*.

Asarda qo‘llangan turkiy so‘zlarni quyidagi jadvalda ifodalash mumkin:

(4-jadval)



a) otlar: *adoq// yog‘//ayoq, aka, ato (ota), barmoq, bosh, boshlig‘, bulut, burun, bo‘yun, dimog‘// dumog‘, yel, yolin, yomg‘ur, yer, yog‘in, yoy, yomonlik//yomonluq, yora, yorlig‘//yorliq, yormaq, yorug‘lik//yorug‘lug‘, yosh, yoshlik, ini, irin, is, yigit, yigitlik, kimsa, kirpik, ko‘z, ko‘zgu, ko‘ks, kul, kulku, kumush, kun, ko‘ngil//ko‘ngul, kun, kuch, og‘iz, og‘a, oy, ona, ot, ota-ona, osh, saqol, tanga, tangri, tegra//tegru, tosh, turk, etak, eshak, eshik, yarmoq, qazon, qanot, quloq, qum.*

b) fe’llar: *ayla-, aylan-, ayril-, angla-, asra-, aya-, ber-, bil-, bit-, biti-, bog‘la-, boq-, bor-, bos-, boshla-, buz-, bo‘l-, buyur-, de-, ye-, yel-, yemir-, yeng-, yet-, yovush-, yog‘-, yoz-, yoyil-, yoq-, yomonla-, yop-, yor-, yorut-, yot-, isla-, ista-, ich-, yibor-, yig‘il-, yig‘ishtur-, yig‘la-, yiqil-, yo‘luq-, kez-, kel-, kes-, ket-, kech-,*

kir-, kiy-, kuy-, kul-, ko'n-, ko'r-, ko'tar-, min-, nayla-, net-, tayog'la-, tani-, tarqal-, tashla-, teg-, tep-, tiy-, tila-, til-, tin-, tirguz-, tom-, ton-, top-, topshir-, toriq-, tort-, qil-, qoz-, qol-, qon-, qotil-, qoch-, qo'p-, qutqar-, qutul-, qo'y-, qo'rq-.

Biz yuqorida ot va fe'l so'z turkimiga mansub so'zlarnigina ma'no jihatdan tasnif qildik. Otlar kabi fe'llar ham lug'aviy ma'no guruhlariga ajratilishi mumkin, lekin bizga ularning ichki tasnifi bilan shug'ullanishga ishning hajmi imkon bermadi. Olmosh va ravish so'z turkumlariga mansub so'zlar ham anchagina, biroq ularni ma'noviy va lug'aviy jihatdan tasnif kilishga yetarli asos yo'q. Boshqa turkumlarga oid so'zdar ham yodgorliklarda uchraydi. Bu so'zlar haqida ham olmosh va ravish so'z turkumlari haqida bayon etilgan fikrni aytish mumkin.

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asari leksikasida yordamchi so'z turkumlariga xos: *bog'lovchilar -kim, toqi/dog'i; ko'makchilar: birla/birlan/bilan, uchun, uzra, ko'ra, sari;* undov: *oyo* kabi so'zlar ham keng qo'llangan. Demak, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asaridagi turkiy TEQning asosiy qismini fe'llar tashkil qiladi, chunki bu asar XIV-XV asrlarda Movaraunnahr va Xurosonda yashab ijod etgan 445 shoirning hayoti haqida qisqacha ma'lumot beradi, shuningdek, ularning g'azallaridan namunalar keltiradi. Bu ijodkorlarning faqat 14 tasi turkigo'y bo'lib, qolgan 431 tasi fors- tojik tilida ijod qilishgan. Shu boisdan ham bu «Majolisun-nafois»da adabiyot va ijod bilan bog'liq so'zlar qo'llangan va ular o'z atrofida arabiyy-forsiy sinonimlarni birlashtirgan. Shuning uchun ham yodgorliklarda turkiy TEQga mansub so'zlar son jihatidan o'zlashgan so'zlardan kam bo'lsa-da, ular dominant sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ushbu bois ham turkiy so'zlar nufuzi arabiyy va forsiy so'zlardan ustunligi ta'minlangan.

2.2. Arabcha so'zlar qatlami

Yuqorida aytib o'tilganidek, arabiyy TEQ ga mansub so'zlar Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari leksikasining 39 foizini (1661 leksema) tashkil qiladi (aralash tipdag'i so'zlar bu hisobga kirmaydi).

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asarida qo'llangan *firdavstazyin, irshod, istifoda, kudurat, mas'ud, mashmumot* singari yuzlab so'z va so'z birikmalarini so'zlashuv uslubiga xos deyish mumkin emas.

«Majolisun-nafois» leksikasidagi arabcha TEQ ga mansub so'zlar tashqi moddiy jihatdan bir bo'g'inli - ikki fonemali (*to*) so'zidan besh bo'g'inli, o'n fonemaligacha (*moxalaqalloh*) bo'lgan so'zlarni tashkil qiladi. Masdarlar (harakat nomlari), mavhum otlar, fe'llarning deyarli barcha faol va majhul (passiv) nisbatlari, joy va payt nomlari (MaSSaS tipidaga), shaxs otlari (SaSSaS tipidagi), fe'llardan kelib chiqqan sifatlar, otlarning siniq ko'plik formalarini tashkil qiladi.

Masdarlar: *adalat, ada, bayt, sabab, tavsif, iltifat, istigaa ixtiyar, kiyasat, malahat*.

Mavhum otlar: *azimat, marhamat, vajh, va'da, vahshat, davran, javhar, jur'at, zaman, izzat, shm, iman, irada, ixtiyar*.

Muayyan (konkret) otlar: *kitab, maktab, muhr, naqsh, oraz, naxl, ravoq, sanduq, tabaq, tovus, hujra*.

Sifatdoshlar: *mubaddal, muvakkil, munqati', muntazir, mutahayyir, musallam, muqayyad, muqarrar, mug'anniy*.

Shaxs otlar: *amir, vazir, ma'shuq, mo'min, nabi, sultan*.

Fe'ldan kelib chiqqan oddiy darajadagi sifatlar: *mahbub, mahrum, mahram*.

Orttirma darajadagi fe'l sifatlar: *a'zam, afzun a'za, ahval*.

Nisbiy sifatlar: *boqi(y), ilohi(y), kayoni(y), vovi(y), asi(y)*.

Ravishlar: *a'vesal, batinan, zahiran, alhal, filhal*.

Bog'lovchilar: *amma, va*.

Siniq ko'plik son formalari: *avsaf - vasf* so'zidan, *avqaf - vaqf* so'zidan, *atrof-taraf* so'zidan, *aflok - falak* so'zidan, *af'al - fe'l* so'zidan, *afg'on - fig'on* so'zidan, *axbor - xabar* so'zidan, *ahvol - hol* so'zidan, *ehson - hasan* so'zidan, *e'zoz - aziz* so'zidan.

Ko'plik sonning to'g'ri yoki to'liq ko'rinishlari: *himayat, tarbiyat, sulukat, savalat, kayfiyat, ahvalat, mavjudat*.

Joy va payt nomlari : *mavzi', mavsum, mazklis, maydan, manzil*.

Arab masdarlari aksariyat turkiy yodgorliklarda bo‘lgani kabi Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida ham o‘zlarining fe’l-otlik ma’nolarini saqlagan. Masalan: *tavsif*, *tavof*, *qatl*. Ular ko‘pgina hollarda ot-fe’l tipidaga qo‘shma fe’llar tarkibida *et*-, *qil*-, *ayla*- so‘zleri bilan ot vazifasida kelib, o‘timli fe’llarni hosil qiladi: *taklif qil*-, *tasnif ayla*-, *tark et*- kabi. Bunday masdarlar bo‘l-fe’li bilan birikib, ko‘pgina qollarda murakkab o‘timsiz fe’llar yasagan:

Mirning asli Ozarbayjondindur va mavludi Sarob otlig‘ kentdindur. Yigitliklarida shayx Sadriddin Ardabiliy (quddisa sirruhu)g‘a murid bo‘ldilar (3).

*Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,
Soldi kamand bo ‘ynuma ikki qulochdin (32).*

Hazrati Mirg‘ama lum bo ‘lg‘och, oni o ‘z suhabatidin mahrum qilib xonaqoxdin ixroj qildilar va buyurdilarkim, hujrasini buzub tufrog ‘in toshqari tashlasinlar (5).

Ba’zan arab masdarlari o‘zlarining ot-fe’llik xususiyatlarini yo‘qotib, muayyan moddiy narsalarni anglatib kelgan: *kitob*, *bayt*, *davot*. Mavhum ma’no anglatuvchi masdarlar shu o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishi arab tili grammatikasi uchun odatiy hol. Bu xususiyatga molik so‘zlar Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida keng qo‘llangan: *azm-azimat*, *karam-karamat*, *saval-savalat*.

Yodgorliklarda aniqlik nisbatida (CaCiC qolipli) va *mu-* old qo‘shimchali -*i*-infiksli arabcha sifatdoshlar ajralmas otsifatlar tarzida qo‘llangan bo‘lib (a), majhul nisbatdagi sifatdoshlar (MuCCiC qolipli) va *mu-* old qo‘shimchali, -*a*- infiksli holatda (b) qo‘llanadi:

- a) *kozib*, *vosiy*, *zolim*, *sohib*, *muvakkil*, *mutahayyir*, *mutavajjih*;
- b) *azimat*, *alamat*, *asalat*, *kiyasat*.

Shaxsotlari (CaCCaC qolipli) doimo otsifat tarzida qo‘llangan: *shar‘iyot*, *sifot*, *sodot*, *takallufot*, *avsot*, *falakiyot*.

Alisher Navoiy arabcha oddiy darajadagi sifatlarni ot-sifat tarzida qo‘llasa (a), orttirma darajadagilarni faqat sifat turkumi sifatida qo‘llaydi va daraja ma’nosini aks ettirmaydi (b):

- a) *zaif*, *kabir*, *mazlum*, *rahim*;

b) *mubtalo*.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois»da arab nisbiy sifatlari o'z ma'nosini to'liq saqlaydi: *vahshiy*, *majoziy*, *rabboniy*, *haqiqiy*, *boqiy*.

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asari leksikasida arabcha yordamchi so'z turkumlari ham o'z ma'nosida qo'llanadi: *amma*, *va* kabi teng bog'lovchilar.

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» muallifi ko'plik sonining to'g'ri formalarini ko'plik sonining to'g'ri formalarini (jen. rod. -*at*, qo'shimchali, muj. rod -*in* qo'shimchali) juda kam qo'llagan (a).

Siniq ko'plik qo'shimchalarini esa ko'plikni anglatgan holda (b), ayrim hollarda birlik ma'noda (v) qo'llagan:

- a) *diyonat*, *zarurat*, *inoyat*, *karomat*;
- b) *avsof*, *avqof*, *amvol*, *ahkom*;
- v) *atrof*, *ahvol*.

Demak, arabcha so'zlarning ko'p qismini masdarlar, sifatdoshlar, ko'plik sonning siniq shakllari va mavhum ot ma'nosini anglatuvchi so'zlar hamda muayyan otlar tashkil qiladi. Biroq dalillardan ma'lum bo'lmoqdaki, o'zlashgan so'zlar alohida lug'aviy ma'noviy guruhlarni tashkil eta olmaydi. Shuning uchun ham arabcha so'zlarni sistem leksikologiyada ajratilgan tub turkiy TEQdagi leksik-semantik va mavzuviy guruhlarga ularning teng darajadagi a'zosi sifatida kiritish mumkin.

2.3. Eroniy so'zlar qatlami

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, eroniy TEQga mansub so'zlar Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida 781 birlikni tashqid qiladi (15,6 foiz). Shundan 236 tasi (2,9 foiz) o'zagi arabcha va yasovchi qo'shimchasi fors-tojikcha bo'lgan so'zlardir (5-jadval).

Uzoq tarixga nazar solsak, eroniy tilli xalqlar bilan turk ulusining aloqalari ildizi juda qadimiy ekanligining guvohi bo'lamiz. Daqiq tilshunos Mahmud Koshg'ariy ham XI asrdayoq bu do'stlikni e'tirof etib, turkiy va eroniy ikki tillilik mazkur xalqlar o'zaro aloqalarining mushtarak va qadimiy ekanligini ta'kidlagan

edi. Shuni bilish mumkinki, ko‘plab eroniy so‘zlar V-XI asrlarda turkiy tillarga kirib kelgan.

Bu so‘zlarning iste’moli XIV-XV asrlargacha kengayib bordi, hatto XIX asrgacha ularning qiymati pasaymadi. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida fors-tojikcha so‘zlarning ko‘lami turkiy so‘zlarnikiga qaraganda bir muncha ko‘pdir.

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asari leksikadagi eroniy TEQ ga mansub so‘zlarni tashqi-moddiy tomondan bir bo‘g‘inli ikki fonemali (*ta-* old qo‘shimchasi) bo‘g‘inli 12 fonemalikkacha bo‘lgan so‘zlar (parishanahval) tashkil qiladi.

Grammatik mansubligiga ko‘ra eroniy so‘zlar quyidagicha:

Otlar: a) konkret otlar: *abr, amakizoda, ashk, bag‘r, badan, bang, bog‘, bog‘bon, bog‘ot, bozor, bunafsha, bo‘ston, ganj, gardun, gov, gul, gulzor, guliston, guhar, go‘sht, dar, dara, darvesh, darvoza, daryo, dast, dastor, dushman, do‘kon, do‘st, nayza, non, ob.*

b) mavhum otlar: *afsona, afsun, bahona, lof, maza, noz, nola, orzu, orom.*

Sifatlar: *afzun, beh, zar, zo‘r, pinhan, pok, rasvo, siyoh, xijil, xurram, xursand, xo‘b, cholok, sharmanda, shodmon, sharmisor, shoyista, sho‘rida, buzurg, bag‘oyat, bad, buzurg, garm, gulgum, devona, dilkash, dono, durust, zebo, zor, kabk, kam, kobud, zod, ozoda, orasta, orosta, osoyish.*

Misollardan shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘zlashma so‘zlarning katta qismini konkret ma’noli otlar va asliy sifatlar tashkil qiladi. Bundan tashqari, old qo‘shimcha affiksoidlar bo‘lmish *be-, ba-, ser-, pur-, xush-* bilan yasalgan sifatlar ham talay. Masalan: *bag‘oyat, bechora, befoyda, behad, behayo, serob, purkor, puroshub, xushgo‘y, xushhol, xushhol, xushnavis.*

Ravishlar: *kam, bisyar, anchunan, xiyla.*

Sifatdoshlar: *sargashta, shikasta, shukufta.*

Modal so‘zlar: *kashki, magar, shayad.*

Bog‘lovchilar: *agar, lekin, valekin, gah-gahi, ya.*

Undovlar: *ey, vay, hayi huy, zihi.*

Sof forsiy so‘zlar. Abr, abtarvash, abtarsheva, avbosh, agar, agarchi, az, amakizoda, andoz, afsona, afsun, ashk, ashkbor, ba, bag‘oyat, bag‘r, bad, badal, badan, badbaxt, badzabon, baho, bazmgoh, bayram, baland, balki//balkim, bang, band, banda, bar, barhaq, barham, bas, base, baxt, baxshish, baho, bahodir, bahona, bahor, beandoza, beandom, begona, bedavo, bedod, bejihat, beixtiyor, beqaror, bemaoshlik, bemehr, beminnat, bemonand, beparvo, bexabar, bexeshona, bexonumon, bexudona, bechora, besha, biyobon, binish, bisyor, bo, bovar, bovujudi, bog‘, bog‘bon, bog‘ot, boz, bozor, bora, buzrukvor, buzurg, buzurgvor, buzurgzoda, buzurgmanish, bunafsha, bunafshazor, bunyod, bo‘ston, vale, gavhar, gavharzoyi, gavharrez, gado//gadoy, ganj, gar, gard, gardun, gardunjoh, garm, gah, gasht, gilaomiz, girdob, giryon, girist, giriftor, giryia, gov, goh, goh-goh, goh-gohi, goho, guvoh, gudoz, guzir, go‘yio, gul, gulandom, gulafshon, gulbarg, gulbong, gulgun, gulzor, guliston, gulnor, gulchehra, gulshan, gul‘uzor, gunash, gunbaz, gung, guruhi, guftor, guhar, guharbor, guharnigor, go‘sha, go‘sht, go‘yanda, , go‘yo, go‘yoki, go‘yon, go‘l, go‘riston, go‘rxona, go‘stoxona, davron, dam, dam-badam, dar, dara, darvesh, darveshvash, darveshona, darveshsifat, darvoza, dargoh, dard, dardmand, dardmandona, daryo, darig‘, dariy, darmahal, darmon, darun, darham, dast, dastgir, dastgoh, dastmoya, dastor, dastras, dastur, dasht, devon, devona, devonavash, devonavor, devor, dehdor, dida, diqqatpesha, dil, dilbar, dildor, dilkash, dilnavoz, diloro, diloshub, dilpazir, dilpisand, dilrabo, dilraboyanda, dilfirib, dilxasta, dilxoh, dimog‘, dindor, dog‘, dod, dol, domgoh, donish, donishvar, donishmand, donishmandona, donish, dono, dor, doro, doru, doston, doxil, doxil, du, dud, dun, durarbor, durbor, durust, dushman, do‘kon, do‘st, yod, yodgor, yor, yoron, yoxud, jahon, jahongashta, jahongir, jahonoro, jahonso‘z, jigar, jilvagar, jon, jonbaxsh, jonvor, jongudoz, jonon, jonparvar, joro‘bkash, judo, zabon, zad, zang, zangor, zanjir, zar, zarifvash, zarofatandesha, zeb, zebo, zor, kabk, kadxudo, kam, kamand, kar, kobud, kog‘az, kokul, kom, kor, korgoh, korxona, kosagar, koshki, ko‘y, kulba, ko‘shish, kushonish, ko‘yu-ko‘cha, lab, labolab, lavand, lavandvash, lavandsheva, lagan, laylivash, lak, lang, langar, lat, lekin, lola, loubolivash, lof, magar, magarkim, mag‘zoba, maza, may, maygun,


maydon, maymun, mayoba, mast, meva, mirzoda, moh, mujda, mo'y, murg', mushkbo', mo', nabira, navbahor, navisanda, navish, navoyib, navoh, navohiy, navras, nadimsheva, nayobat, nayza, nayshakar, namak, namudor, nargis, nigor, nigoriston, nigun, nob, nogah//nogoh, nodon, noz, nozanin, noziksheva, noz, nozuk, nokas, nola, non, nonvoy, nopaydo, notavon, noxush, nohamvor, noshod, noshoysta, no'sh, ob, obodon, ovoza, ogoh, ozod, ozoda, ozodavash, ozurda, oyin, oyina, omad, omizish, orasta, orzu, oroyi, orom, oromgoh, oromijon, orosta, osoyish.

Misollardan shu narsa ayon bo'ladiki, o'zlashma so'zlarning katta qismini konkret ma'noli otlar va asliy sifatlar tashkil qiladi. Bundan tashqari, old qo'shimcha affiksoidlar bo'lmish *be-*, *ba-*, *ser-*, *pur-*, *xush-*, *ba-* kabilalar bilan yasalgan nisbiy sifatlar miqdori ham anchaga yetadi.

Arabcha-forscha so'zlar. *Bemor, bebadal, bebahra, amaldor, badmaosh, badfe'l, badxo'y, badxulq, bahramand, beadabona, beedad, beaql, bevafo, bevosita, benazir, benasib, benihoyat, betaayyun, betaamul, betakalluf, betob, betoqat, befoya, behad, behayo, behol, olamgir, vazirzoda, mavlonozoda, mavolivash, musulmonvash, mushkulkusho, odamzoda, odamivash, odamizod, odamisheva, olamoroyi, sayidzoda, tabibsheva, turkvash, turkigo'y, turkiy, turkona, turkonaroh, g'amgin, g'amkash, habissheva, havasnok, hazlomez, , hamroz, hamsabaq, hamuldara, hozirona.*

Ma'no munosabatlariga ko'ra eroniylar so'zlarini ham mavzuviy va lug'aviy grammatik guruhlarga bo'lish mumkin. Mazkur lug'aviy ma'no guruh (LMG) larning teng ma'noli a'zolari, sinonimlari tarzida yoki LMG larning yangi qo'shimcha ma'no (konnotativ) (a) va uslubiy ma'no (ottenka) bilan boyituvchi (b) birikmalarini (leksema) vazifasida qo'llanganligini ko'rish mumkin:

**5-
jadval**



Agar arabcha TEQ da mavhum ma'noli so'zlar yetakchi o'rinda tursa, eroniy TEQ da esa konkret ma'noli so'zlar asosiy o'rinda turadi. Masalan, *bemehr*, *beparvo*, *gulandom*, *gulafshon*, *gulbong*, *gulgun*, *gulnor*, *gulchehra*, *gul'uzor*, *guharbor*, *guharnigor*, *dilbar*, *dildor*, *dilkash*, *dilnavoz*, *diloro*, *diloshub*, *dilpazir*, *dilpisand*, *dilrabo*, *dilraboyanda*, *dilfirib*, *dilxasta*, *dilaram*, *dilbar*, *yar*, *mah*, *mohi tobon*, *chashmi giryon* singari bir sinonimik qatordaga so'zlar yagona tushuncha - sevgili ma'nosini anglatadi.

Vah, ne holatdurki, men har necha ko 'rguzsam niyozi,
*Ey mahi **bemehr**, sendin zohir o'lmas g'ayri noz (100).*

*Tushgali hajringda, ey sarvi **gulandomim** mening,*
Ne ko 'zumda uyqu bor, ne jonda oromim mening (102).

Sendin ayru tushgali, ey mohi tobonim mening,

Dam-badam qonyoshi yig 'lar chashmi giryonim mening (102).

Nazmiy uslubga xos bunday arabcha va fors-tojikcha so'zlar Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari leksikasining 15,6 foizini tashkil qiladi. Albatta, bunday so'zlar o'zaro alohida leksik-semantic va mavzuviy guruhlarga ajralmasdan hayotiy zarur narsa va voqea-hodisalarini qo'shimcha ma'nolar bilan to'ldirish uchun xizmat qilgan.

Biroq bunday qat'iy va aniq riyoziy ko'rsatkichlar, shuningdek, TEQlarning lug'aviy-tavsifiy bayoni etimologik qatlamlar hamda ularning birliklari haqidagi tashqi ma'lumotlar beradi. Biz bu ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida turkiy so'zlar miqdori deyarli barcha qatlamlardan past degan xulosaga kelamiz. Bunday xulosalar eski o'zbek tili leksikasi bo'yicha qilingan deyarli barcha tadqiqotlarda mavjud. Afsuski, bu riyoziy-tavsifiy ma'lumotlar turli xildagi TEQlarning, jumladan, turkiy, eroniy va arabiylar so'zlarning tildagi sifat mavqeい to'g'risida aniq xulosa chiqarishga to'sqinlik qiladi. Chunki tavsif va ro'yxatlarda, riyoziy ko'rsatkichlarda biz fahm (tajriba, kuzatish, emperik o'rghanish) asosida «Majolisun-nafois» asari lug'at boyligining tashqi miqdoriy tomoni haqidaga ma'lumotga ega bo'lamiz. Bunday xulosalar ko'p hollarda bizni "aldaydi". Buning boisi shundaki, qiyosiyot (dialektika) va tasavvuf ta'limotiga ko'ra tashqi tomonidan o'rghanish bizni hamma vaqt «yangninggiradi», «chalg'itadi». Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy buni «Lisonut-tayr» asarida ixchamgina qilib «Qosir etti fahmdin idrokni» fahm, ya'ni hodisalarning tashqi xususiyatlari, idrok, esa mohiyatni ochishga to'sqindik qiluvchi) deb sharhlagan edi. Haqiqatan ham TEQlarni fahmiy usulda miqdoriy ko'rsatkichlarda va ro'yxatlarda ko'rib o'tish turkiy, arabiylar va eroniy TEQlar orasidaga sifat bog'lanishlarini sifat munosabatlar bilan qorong'ilashtirib qo'yadi. Bu qatlamlar orasidagi sifat bog'lanishlarni ko'rib o'tish uchun biz namuna sifatida atigi uchta turkiy so'zni, shu so'z ifoddllagan ma'noni anglatuvchi arabiylar va eroniy ma'nodoshlarni, ya'ni sinonimlari bilan munosabatini ko'rib o'tamiz. Bu

so‘zlar suyukluk, tuzluq, go’zal- kabilardir. Shuningdek, suyukluk so‘zining sevgili ma’nosini anglatuvchi arabiylari (a) va forsiy (b) ma’nodoshlari (sinonimlari) ham keng qo‘llanilgan: (1-chizma)

a) *gulafshon* - *Bu hazratkim, bu majlis ahlining sadrinishinidurlar sahobi maoniylari gavharrez va bu jamoatkim, ul hazrat xirmani maoniysining xushachinidurlar, gulshani tab'lari gulafshon va sumanbez, sarxaylg‘a vusuli ilohi yetsun va xaylg‘a sharafi saodat va mag‘firati nomutanohi kasib etsun* (62).

guharnigor – *Ma’shuq umidida dardu hasratini izhor qilib betoqatlig‘ig‘a rahm etmasida u matla’dao‘q javob ul tab‘i durarbordin va xomai guharnigordin raqam topibdurkim, vasfida aql hayron va fahm sargardon* (103).

guharbor - *Parivash hajrida ozorlaridin ani xabardor qilmoq orzu aylabtur va aning jilvasi muqobalasida ko‘zin guharbor qilmog‘ni havas qilibdur va ikkisi nodir voqe’ bo‘lubturkim* (105).

dildor – *G‘uncha gar nisbat qilur o‘ziga dildor og‘zini,*

Ey sabo yeli, to‘la qon ayla zinhor og‘zini (14).


dilkash - *Surati xush va siyrati dilkash, axloqi hamida va atvori pisandida yigitdur* (83).

dilnavoz - *Yor ishtiyoyqinnng suubatida va dardi firoq uquba-tida bu matla’ behad dilnavoz va bag‘oyat jongudoz voqe’ bo‘lubtur* (102).

diloro – *Ham bu matla’ tavrida-o‘q qofiyag‘a tag‘yir berilib, hamul radifda bu matlai dag‘i asru diloro va anduhafzo tushubtur* (105).

1 - ch i z m a

“suyukluk» uyasi



Albatta, *suyukluk* (sevgili) va uning ma’nodoshlari ta’riflanayotgan “suyukluk”ning ba’zi tomonlarini tavsiflayoganga o‘xshaydi. Chunonchi, *guharnigor*, *dilbar*, *dildor*, *dilkash*, *dilnavoz*, *diloro*, *diloshub*, *dilpazir*,

dilpisand, *dilrabo*, *dilraboyanda*. Biroq keltirilgan misollardan bu so‘zlar «suyukluk» ning yoki sevgilining yuzini tavsiflamay, uning o‘zini atayottanligi aniq ko‘rinadi.

Suyukluk tushunchasini boshqa so‘zlar bilan atash zaruratidan emas, balki ifoda vositasini rang-baranglashtirish, go‘zallashtirish, istiora, she’riyatda esa vazn, qofiya talabi bilan belgalanadi. Xuddi shuningdek, *jahongashta* so‘zi va uning noturkiy ma’nodoshlarini olib ko‘raylik:

a) *jahongashta* - M i r L a v a n d— *jahongashta kishido ‘r. Qalandarlik suratida yurur erdi* (51).

jahongir – *Muluk shajarlarining bo‘stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya’ni Tye mur K o ‘r a g o n* (89).

jahonoro – *Saltanat bahrining durri yaktosi va xilofat sipehrining xurschedi jahonorosi, saxovat havosining abri guharbori va shijoat beshasining huzabri shikori* (96)

jahonso‘z – *Rindemu oshiqemu jahonso‘zu joma chok,*

Bo davlati g‘ami tu zi fikri jahon chi bok (3).

b) *jonbaxsh* – *Xasta jonim za’fig‘a la’li shakarboring iloj,*

Zor ko ‘nglum dardig‘a jonbaxsh guftoring iloj (98).


jonvor – *Bir nav’ qadimona she’r ham aytur, ammo yaqindur odamiyliq suratidin munxale’ bo ‘lub o ‘zga jonvor suratig‘a masx bo ‘lg‘ay* (70).

jongudoz – *Yor ishtiyoqinng suubatida va dardi firoq uqubatida bu matla’ behad Dilnavoz va bag‘oyat jongudoz voqe’ bo ‘lubtur* (102).

jonparvar – *Bu valoyatosor guruh va bu fasohatshior anbuhlarning ruhlarinikim, xaloyiq ruhi alarning jonparvar nafaslaridin tozadur va ulus osoyishi alarning ruhbaxsh kalomlaridin beandoza* (13).


2-chizma

«Tuzluq» uyasi



3- chizma

«go'zal~» uyasi



Chizmalardan ko‘rinib turibdiki, turkiy suyukluk, tuzluq, go‘zal - so‘zlari uyalarning markazida turadi va qurshovdagi boshqa lafzlarning asosiy ma’nosи shu

kalimalar bilan ifodalanadi. Shuning uchun bu uyalarda ko'rsatilganidek, asosiy lisoniy ehtiyoj bo'lgan atash-nomlashni ifodalash ahamiyati turkiy so'zlarga molikdir. Ularning arabiylari, eroniylari esa ifodalash, tasvirlash, badiiylik, go'zallikni ta'minlashga xizmat qiladi. Zaruriy ehtiyoj turkiy so'z tar bilan ifodanigan bo'lsa, arabiylari, eroniylari so'zlar badiiy sayqal berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bayonlarda shunday o'zlashma so'zlar borki, ularning o'zlarini alohida bir lug'aviy uyalarning markazini tashkil qiladi va ma'lum narsa, belgi, harakatni atash-nomlashning yagona markaziy vositasi bo'lib keladi. Chunonchi, aql so'zi har bir ishga ongli munosabatda bo'luvchi shaxs ma'nosini yagona atash-nomlish vositasidir. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois»da bu lafz *aqli*, *dono*, *pursuxan*, *asalatlari*, *aqlu danishda barkamal* kabi so'z va so'z birikmalarini o'z atrofida biriktiradi. Akl so'zi shu tushunchani ifodalash uchun yagona vositadir. Qadimga turkiy tilida bu tushuncha *bilga*, *o'ga* kabi turkiy so'zlar bilan ifodalangan. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» tilida bu so'zlar ishlatilmaydi. Xudpi shunday fikrni *parishon*, *mahram*, *namayon*, *xabar*, *g'ayr*, *hazin* kabi so'zlarga nisbatan ham aytish mumkin.

Shuni ta'kiddash mumkinki, na hozirga o'zbek tili (HO'T) va na eski o'zbek tili (EO'T) o'z va o'zlashma so'zlar qiymat va ahamiyat nuqtai nazaridan o'rganilmagan. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» materiallari asosida esa bu hodisani ko'rib chiqish noto'liq va bir tomonlama xulosalarga olib kelgan bo'lar edi. Chunki manbalarimizning materiallari nihoyatda cheklangan. Shuning uchun katta lug'aviy material asosida o'z va o'zlashma so'zlar orasidaga munosabatlarni atroflicha o'rganish ancha qimmali ma'lumotlar berishi EO'T lug'at boyligining TEQlari, ularning har birining til quriliishdagi mavqeい haqida to'g'ri xulosalar chiqarishga imkon berishi mumkin. Chunki shu kungacha fanimizda mavjud bulgan ma'lumot va hukmlar lug'at boyligimizning, asosan, miqdoriy tahliliga tayanadi. TEQlarning sifat mohiyati jihatidan o'rganish, har bir so'zning qiymatini aniqlash, eski o'zbek tili lug'at tarkibi haqida yangi xulosalar chiqarishga imkon yaratada.

II B O B

ALISHER NAVOIYNING «MAJOLISUN-NAFOIS» ASARINING HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIGA MUNOSABATI

O'TILda Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari leksikasidagi 4260 leksemaning 2322tasi (54,5 foiz) uchramaydi. Shundan 14 leksema (04 foiz) turkiy (*yasoq, asru, biti-, bitikchi, dag'i, yolin, yonchoq, ushoq, cherik, chog'ir, yuxlaqu, yasol, o'tru, qazoqlig'*), 81 leksema (4 foiz) arabiylar, 140 leksema (7 foiz) eroniylar mansubdir. Demak, O'TILga yodgorlik so'z boyligining 45,5 foizining.

1-§. O'TILda qayd qilingan bo'lib, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida uchraydigan so'zlar

Alisher Navoiy yuksak badiiylikni ko'z-ko'z qilishni, turkiy tillar imkoniyatini jahonga namoyish qilishni maqsad qilib ko'ygan va o'z asarlarida turkiy tillar, shevalar hamda yodnomalarda qo'llangan so'zlardan unumli foydalananib, butun imkoniyatlarni ishga solgan. Hissiz, riyoziy ko'rsatkichlar buning yorqin dalilidir. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari leksikasining 55 foizi hozirgi o'quvchi uchun tushunarli. O'TILda o'z aksini topmagan va 0,4 foizini tashkil etuvchi 1938 so'zni tarixiy-etimologik qatlamlarga ko'ra quyidagi (aralash so'zlar bilan birga) guruhlash mumkin:

1.Turkiy qatlam so'zlari 14ta (3 foiz):

- a) arabiylar - turkiy so'zlar 46 ta (1,1 foiz);
- b) eroniylar - turkiy so'zlar 35ta (0,8 foiz).

Jami: 95 ta (2,2 foiz).

1.1.Turkiy so'zlar qatlami

Arabcha-turkiyicha so'zlar: *avdatliq\adablig\//adabliq, astrabodlig\bul'ajablig\, viqorliq, da'volik, devonboshi, diqqatsozlig\, jafochi,*

jurjonlik, jo 'nobodlig', zarofatliq, kabudjomalig', kamardo 'zliq, kohilliq, lavandlig', lollig', mab hutluq, mazlumshiorlig', manishlik, matla'larcha, mahdiylik, mashrabliq, mutasavvirlig', muhovaraliq, niyozmandlig', omiylig', oshuftalig', saharyidek, sahhoflik, simnonliq, sovaliq, taaqqulluq, tabaslik, tavrlig'//tavrlik//tavrliq, tayobodlig', taqvimdek, taxayyulluq, ta'zimliq, tiyalik, turfaliq, turshizlik, shikoyatpayvandlig', shirinadoliq, shu'badabozliq, g'azlfurushluq, hofizasicha, hullaboflig'.(46)

Forscha-turkiycha so'zlar: *sipohiylik, yakdastlik, badxo 'ylug', badshe'rlik, bedillig', betoblig', bexudlig', gustohlik, darveshxo 'yluq, darzigarlik, diljo 'ylug'//diljo 'yluq, jomabofliq, kamongarlik, kapanakpo 'shluq, kissado 'zluq, kordgarlik, nomurodlig'//nomurodliq, navisandalik, purgo 'yliq, purkorlig', sodalig', tirandozlik, xayolangezlik, xaymado 'zluq, xishtmolliq, xudoroylik, xudroylik, xurusonliq, xushgo 'yliq, xushluq, xushxonliq, chechaktuluq, choshnilig', shikastalik, shikoflig'. (35)*

Arabcha-forscha-turkiycha so'zlar: *badfe'lliq, behijobliq, nuktapardozlig', faqrpeshalik, fanoandeshalik, xushtab 'lig'.(6).*

2 Arabiy qatlam so'zlari 2082 ta (48,9 foiz).

3.Eroniy qatlam so'zlari 145 ta (3,4 foiz);

Abr, abtarvash, abtarsheva, avbosh, az, amakizoda, ashk, ashkbor, ba, badzabon, bar, barhaq, base, baxshish, beandoza, beandom, bedod, bemaoshlik, bemonand, bexeshona, bexudona, besha, binish, bisyor, bovujudi, buzrukvor, buzurg, buzurgzoda, buzurgmanish, vale, gavharzoyi, gavharrez, gardun, gardunjoh, garm, gah, gilaomiz, girist, giryta, gov, gudoz, gulbong, gulgur, gul'uzor, gunash, guftor, guhar, guharbor, guharnigor, go'yanda, go'yon, go'stohona, dar, darveshvash, darveshona, darveshsifat, dardmandona, darig', dariy, darmahal, darun, darham, dastgir, dastor, dastras, devonavash, devonavor, dehdor, dida, diqqatpesha, diloshub, dilpazir, dilpisand, dilrabayanda, dilfirib, dilxoh, dol, domgoh, donish, donishvar, donish, doxil, du, dun, durarbor, durbor, jahonso 'z, jongudoz, jonparvar, joro 'bkash, zad, zarifvash, zarofatandesha, kabk, kadxudo, kamand, kobud, korgoh, kosagar, ko'shish, kushonish, labolab, lavand,

lavandvash, lavandsheva, laylivash, lak, loubolivash, maygun, mayoba, mirzoda, moh, mujda, mo'y, murg', mushkbo', mo', navisanda, navish, navoyib, navoh, navohiy, navras, nadimsheva, nayobat, nayshakar, namak, namudor, nargis, nigor, nigoriston, nigun, nob, nohamvor, noshod, noshoyista, no'sh, ob, ozodavash, ozurda, oyin, omizish, oroyi, orosta, osoyish(145).

a) arabi - eroni so'zlar 64 ta (1,5 foiz).

4. Aralash turdaga so'zlar: 63 ta (3 foiz).

Bebadal, badmaosh, badxo'y, badxulq, beadabona, betaayyun, betaamul, olamgir, vazirzoda, mavlonozoda, mavolivash, musulmonvash, mushkulkusho, odamzoda, odamivash, odamisheva, olamoroyi, tabibsheva, turkvash, turkigo'y, turkonaroh, g'amgin, habissheva, havasnok, hamroz, hamsabaq, hamuldara, hozirona.(64).

Yanada ravshanroq qilib aytganda, bular ichida so'ngti yasovchisi turkiy bo'lgan so'zlar 35 ta (0,8 foiz), eroni bo'lgan so'zlar 64 ta (1,5 foiz).

Ko'rini turibdiki, O'TILga kirmagan arabi TEQ so'zlari turkiy va eroni TEQ so'zlarga nisbatan ko'p. Buning sababi "Majolisun-nafois" asari XV asr yuksak madaniyat sohiblari – shu zamonaning ijodkorlarining hayotiy faoliyatiga bag'ishlangan va ularning eng saralangan baytlaridan namuna keltirishga bag'ishlangan asar bo'lganligi sababli unda qo'llangan arabi so'zlearning qariyb 50 foizi O'TILDan o'rin ololmaydi, Demak, Bu asarni o'qish va uning mag'zini chaqish uchun ham eski o'zbek tilining imkoniyatlarini yaxshi bilish kerak, ham Navoiy asarlariga bag'ishlangan lug'atlardan oqilona foydalanish lozim ekan.

Endi O'TILga kirmay qolgan so'zlarni TEQlarga ko'ra alohida-alohida tahlil qilamiz.

1. Turkiy qatlam so'zlari. (ularning ro'yxati 3 jadvalda berilgan).

Turkiy TEQga oid bunday 95 ta (3 foiz) so'zdan 81 tasi serunum so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lgan -dek, -day, -larcha, -lik bilan yasalgan so'zlar bo'lib, ularning lug'atga kirmasligi tabiiy, chunki hech bir lug'at unumli so'z yasash qoliplarining hosilalarini qamrab ololmaydi, ular cheksizdir. Mazkur lafzlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

O‘TILda qayd qilinmagan turkii so‘zlar

Turkiy asosli (14\1)	Arabiylashtirilgan (110/33)	Eroniy asosli (80/19)
<i>yasoq</i>	<i>avvalgi//avvalg‘i</i>	<i>sipohiylik</i>
<i>asru</i>	<i>avdatliq</i>	<i>shogirdlig</i>
<i>biti-</i>	<i>adablig‘//adabliq</i>	<i>sho‘xlik//sho‘xluq</i>
<i>bitikchi</i>	<i>aybsiz</i>	<i>yakdastlik</i>
<i>dag‘i</i>	<i>astrabodlig‘</i>	<i>g‘unchadek</i>
<i>yolin</i>	<i>atvorliq</i>	<i>hushyorlig‘:</i>
<i>yonchoq</i>	<i>axloqlik</i>	<i>badxo‘ylug‘</i>
<i>ushoq</i>	<i>ahvollig‘</i>	<i>badshe‘rlik</i>
<i>cherik</i>	<i>bul‘ajablig‘</i>	<i>barhamlig‘</i>
<i>chog‘ir</i>	<i>buxorolig‘</i>	<i>bedillig‘</i>
<i>yuxlaqu</i>	<i>vafosiz</i>	<i>beixtiyorlig‘</i>
<i>yasol</i>	<i>viqorliq</i>	<i>beparvolig‘</i>
<i>o‘tru</i>	<i>vujudlo‘q</i>	<i>betoblig‘</i>
<i>qazoqlig‘</i>	<i>da‘volik</i>	<i>betoqatlig‘</i>
	<i>devonalardek</i>	<i>bexudlig‘</i>
	<i>devonalig‘</i>	<i>behollig‘</i>
	<i>devonboshi</i>	<i>bechoralig‘</i>
	<i>diqqatlik</i>	<i>birdam</i>
	<i>diqqatsozlig‘</i>	<i>bulbuldek</i>
	<i>jafochi</i>	<i>badxo‘ylug‘</i>
	<i>jurjonlik</i>	<i>gustohlik</i>
	<i>jo‘nobodlig‘</i>	<i>darveshlik//darveshliq</i>
	<i>zarofatliq</i>	<i>darveshxo‘yluq</i>
	<i>zarradek</i>	<i>darzigarlik</i>
	<i>zehnlik</i>	<i>diljo‘ylug‘//diljo‘yluq</i>
	<i>zotlig‘</i>	<i>donoliq</i>
	<i>zulfidek</i>	<i>badxo‘ylug‘</i>
	<i>idrokliq</i>	<i>gustohlik</i>
		<i>darzigarlik</i>
		<i>diljo‘ylug‘//diljo‘yluq</i>
		<i>jomabofliq</i>
		<i>jonlig‘</i>
		<i>zebolig‘</i>
		<i>ziyoratgohliq</i>
		<i>zorlig‘</i>
		<i>kamlik</i>
		<i>kamongarlik</i>

	<i>ilmliq</i>	<i>kapanakpo 'shluq</i>
	<i>insoniyatlik kamardo 'zliq</i>	<i>kissado 'zluq</i>
	<i>kimyogarlik</i>	<i>kordgarlik</i>
	<i>kotiblik</i>	<i>kosagarlik</i>
	<i>avdatliq astrabodlig‘</i>	<i>nomurodlig ‘//nomurodliq</i>
	<i>jurjonlik</i>	<i>notavonlig‘</i>
	<i>jo 'nobodlig‘</i>	<i>navisandalik</i>
	<i>zarofatliq</i>	<i>loladek</i>
	<i>kohilliq</i>	<i>naqshbozlig‘</i>
	<i>lavandlig‘</i>	<i>noziklik//nozukluk</i>
	<i>latofatlik</i>	<i>osonlik</i>
	<i>lollig‘</i>	<i>parishonlig‘</i>
	<i>mab hutluq</i>	<i>podshohlig‘</i>
	<i>mazasiz</i>	<i>pурго 'yliq</i>
	<i>mazlumshiorlig‘</i>	<i>purkorlig‘</i>
	<i>mazmunluq</i>	<i>puxtalig‘</i>
	<i>maylliq</i>	<i>pushaymonlig‘</i>
	<i>manishlik</i>	<i>ravonlig‘</i>
	<i>mashliq</i>	<i>ranginlig‘</i>
	<i>matla 'dek</i>	<i>rasvolig‘</i>
	<i>matla 'larcha</i>	<i>rahnamoyliq</i>
	<i>mahdiylilik</i>	<i>sodalig‘</i>
	<i>mahoratlig‘</i>	<i>somonliq</i>
	<i>mahrumluq</i>	<i>soflig‘</i>
	<i>mashg 'ulluq</i>	<i>tanburachi</i>
	<i>mashrabliq</i>	<i>tirandozlik</i>
	<i>mashhadlig‘</i>	<i>farzandlig‘</i>
	<i>minnatdorlig‘</i>	<i>xayolangezlik</i>
	<i>millolig‘</i>	<i>pурго 'yliq</i>
	<i>mutasavvirlig‘</i>	<i>purkorlig‘</i>
	<i>muhovaraliq</i>	<i>tirandozlik</i>
	<i>naqqoshlik//naqqoshliq</i>	<i>xaymado 'zluq</i>

	<p><i>nasabliq</i></p> <p><i>nafsliq</i></p> <p><i>niyozmandlig‘</i></p> <p><i>odamiylik//odamiyliq</i></p> <p><i>omiylig‘</i></p> <p><i>oshuftalig‘</i></p> <p><i>ra'nolig‘</i></p> <p><i>sabodek</i></p> <p><i>sabrsiz</i></p> <p><i>savoddek</i></p> <p><i>sahariydek</i></p> <p><i>sahhoflik</i></p> <p><i>simnonliq</i></p> <p><i>sifotlig‘</i></p> <p><i>sovaliq</i></p> <p><i>suhbatliq</i></p> <p><i>taaqqulluq</i></p> <p><i>tabaslik</i></p> <p><i>tabrizlik</i></p> <p><i>tab'lig‘//tab'lik//tab'liq</i></p> <p><i>tavrlik‘//tavrlik//tavrliq</i></p> <p><i>tayobodlig‘</i></p> <p><i>taqvimdek</i></p> <p><i>taxayyulluq</i></p> <p><i>ta'zimliq</i></p> <p><i>telbalardek</i></p> <p><i>tiyralik</i></p> <p><i>turfaliq</i></p> <p><i>turshizlik</i></p> <p><i>uzrxohlig‘</i></p> <p><i>xulqlik//xulqluq</i></p> <p><i>shayxliq</i></p>	<p><i>xushgo'yliq</i></p> <p><i>xushluq</i></p> <p><i>xushxonliq</i></p> <p><i>chechaktuluq</i></p> <p><i>choshnilig‘</i></p> <p><i>shaydolig‘</i></p> <p><i>sharmandalig‘</i></p> <p><i>sherozlik//sherozliq</i></p> <p><i>shikastalik</i></p> <p><i>shikoflig‘.</i></p>
--	--	---

	<i>shakllik</i> <i>shikoyatpayvandlig‘</i> <i>shiorliq</i> <i>shirinadoliq</i> <i>shoirlik//shoirliq</i> <i>shu'badabozliq</i> <i>qabuliyatlik</i> <i>qalandarlik</i> <i>qasidaxonliq</i> <i>qobiliyatlig‘</i> <i>quvvatlig‘</i> <i>qullug‘//qulluq</i> <i>g‘azlfurushluq</i> <i>g‘amxorliq</i> <i>g‘ariblik</i> <i>hayotdek</i> <i>hinducha</i> <i>hiriylilik</i> <i>hofizaliq</i> <i>hofizasicha</i> <i>hullaboflig‘</i> <i>hurmatlig‘:</i>	
--	--	--

1. Yasama so‘zlar:

1. Asosi O‘TILda mavjud bo‘lgan so‘zlar:

- a) turkiy asosli so‘zlar;
- b) eroniy asosli so‘zlar;
- v) arabiyy asosli so‘zlar.

2. Asosi O‘TILda qayd etilmagan so‘zlar:

- a) eroniy asosli so‘zlar;
- b) arabiyy asosli so‘zlar.

II. Tub so‘zlar:

O‘TILda qayd etilmagan so‘zlar.

1. O‘TILda tamoman boshqa ma’noda qo‘llangan so‘zlar. Biz quyida ajratilgan har bir guruh va guruhchalarining tahliliga to‘xtalamiz.

O‘TILga kirmay qolgan 176 ta so‘zdan 123 tasining so‘z yasash asoslari lug‘atdan joy olgan va ularning yasovchilari hamda so‘z yasash qolipining ma’nosini hozirga zamon grammatik tavsiflarida berilgan. YA’ni bunday so‘zlarning 1 tasi turkiy asosli so‘zlar: *bitikchi*; 18 tasi eroniy asosli so‘zlar; *badnamlik bekaslik bexudlik bexushlardek bulbuldek gadalardek gumanlig daraxtlarcha dastgirliq dastdarazliq devarlan- danishliq jahandarliq kushodaliq mumdek xo‘blik ainabandlik aftabdek ashnaliq parishanliq pirlig parsalig rustaxezlik sarvixiramandek sargashtalik sahibjamalliq sitaralardek suxandanlig sho‘ridalik g‘unchadek hamzabanliq hazardastandek*; 11 tasi arabiy asosli: *asalatlik dunyалик durafshanliq zarafatliq inkisarliq mubarakbadliq tuyassarla- mubtalolik muqayadliq uzrxanliq qamardek kabi so‘zlardan iborat*.

Dalillardan ko‘rinib turibdiki yuqorida keltirilgan hosilalar O‘TILDan maxsus joy olishi shart emas chunki hech bir lug‘at unumli sermahsul so‘z yasash hosilalarini qamrab olishi mumkin emas.

Demak bunday hosilalar -*dek* -*lik* -*larcha* -*lardek* kabi qo‘shimchalarning Alisher Navoiy davridayoq cheksiz mahsuldor bo‘lganidan va HO‘T unumli so‘z yasalish qoliplari o‘sha paytdayoq shakllanganligidan dalolat beradi. Bu fikrni yasash asoslari HO‘Tda qo‘llanmaydigan va tabiiyki O‘TILDan joy olmagan biroq Alisher Navoiy asarlarida -*liq* qo‘shimchasi bilan yasalgan 18 ta yasalish asosi eroniy bo‘lgan (*badxo‘ylug*, *gustohlik*, *darzigarlik*, *diljo‘ylug* // *diljo‘yluq*, *jomabofliq*, *kordgarlik*, *navisandalik*, *pурго‘yliq*, *purkorlig*, *tirandozlik*, *xaymado‘zluq*, *xishtmolliq*, *xudroylik*, *xurusonliq*, *chechaktuluq*, *choshnilig*, *shikoflig*) va 33 ta yasalish asosi arabiy bo‘lgan (*avdatliq*, *astrabodlig*, *jurjonlik*, *jo‘nobodlig*, *zarofatliq*, *kohilliq*, *lavandlig*, *mabhutluq*, *mazlumshiorlig*, *manishlik*, *mashliq*, *mahdiylik*, *mashhadlig*, *muhovaraliq*, *omiylig*, *ra’nolig*, *sahhoflik*, *simnonliq*, *sifotlig*, *sovaliq*, *taaqqulluq*,

tab'lig // *tab'lik* // *tab'liq*, *tavrlik* // *tavrliq*, *tayobodlig*', *taxayyulluq*, *ta'zimliq*, *tiyralik*, *turshizlik*, *shu'badabozliq*, *g'azlfurushluq*, *hinducha*, *hiriylilik*, *hofizasicha*, *hullaboflig*' kabi) so'zlar yana bir bor tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan biroq O'TILda qayd kilinmagan turkiy asosli tub so'zlar sifatida quyidagi 1 ta *bitikchi* "yozuvchi" so'zini keltirish mumkin.

Shu bilan birga O'TILda mavjud biroq Alisher Navoiy asarlarida butunlay boshqa ma'noda qo'llangan 4ta tub so'z borki ular tubandaga ma'nolarda qo'llangan: *ushoq* – "kichik mayda" *yorlig*' – "buyruq" *yon* – "qaytmoq" *qo'p* – "o'rindan turmoq" ma'nolarida qo'llangan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asari lug'at boyligi turkiy TEQga mansub bo'lgan 342 ta so'zdan atiga 52 tasi (1.2 foiz) hozirga o'zbek adabiy tilida ishlatalmaydi. Bu 352 ta so'zdan 18 tasining yasalish asosi eroniy 33 tasining yasalish asosi arabiya va 1 tasi turkiy asosli so'zlardir.

Ko'rinish turibdiki O'TILga kirmagan so'zlar sifatida ajratilgan va turkiy lug'aviy qatlamga mansub bo'lgan 352 ta (8,3 foiz) so'zdan 138 tasining asosi O'TILda berilgan va hosila so'zlar unumli so'z yasash qoliplari bilan yasalgan 52 tasining yasalish asosi esa arabiya-eroniy tillarga mansub bo'lib, ular HO'Tda qo'llanmaydi. Shuning uchun bu so'zlarni O'TILga kiritish shart emas ularni izohli lug'atga kirmagan so'zlar qatoridan chiqarish lozim. O'TILga kirmagan so'zlar sifatida 64 ta so'z va 14 ta ma'no qayd etilishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 64 ta so'z va 14 ta ma'noning faqat turkiy tilga xos 14 tasi hozirgi o'zbek shevalarida jumladan o'zbek tilining Xorazm shevalarida qo'llanadi. Bu so'zlarni o'zbek tiliga qadimgi turkiy tildan qolgan yodgorliklar deb baholash lozim (dag'i, yolin, yonchoq, ushoq, cherik, chog'ir, yuxlaqu, yasol, o'tru, qazoqlig'). Bu so'zlarning *dag'i*, *ushoq*, *cherik*, *chog'ir*, *o'tru* singarilari eski o'zbek yozma yodgorliklarida keng qo'llangan va adabiyot ixlosmandlariga tanish. Qolgan *yonchoq* "bezakli ot yopig'inining ikki yoni", *yuxlaqu* "yuqadigan", "saf", "qator", *qazoqlig*' "qozilgan" so'zlari turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridan saqlanib qolgan qoldiq hisoblanib, ulardan Alisher Navoiy o'z asarining badiiy yuksakligini ta'minlash uchun foydalangan.

1.2. Eroniy so‘zlar qatlami

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asaridagi 19 ta (0,4 foiz) eroniy TEQga oid (*badxo ‘ylug*, *gustohlik*, *darzigarlik*, *diljo ‘ylug*//*diljo ‘yluq*, *jomabofliq*, *kordgarlik*, *navisandalik*, *pурго ‘yliq*, *pуркорлиг*, *tirandozlik*, *xaymado ‘zluq*, *xishtmolliq*, *xudoroylik*, *xudroylik*, *xurusonliq*, *chechaktuluq*, *choshnilig*, *shikoflig*). so‘zlar (tub va yasama, sof eroniy - 185 ta, arabiyy-eroniy qurilishli 43 ta so‘z) O‘TILdan joy olmagan. Bu so‘zlarni mustaqil so‘z turkumlari va yordamchi so‘z turkumlari va undovlarga (1) o‘zbek tilida umuman qo‘llanmaydigan sonlarga (2) otlarga (3) hararkat nomlariga (4) sifatlarga (5) olmoshlarga (6) va fe’llarga (7) bo‘lish mumkin.

1.Mustaqil so‘z turkumlari:

Otlar: *buzurgvor*, *dast*, *kabk*, *kadxudo*, *kamand*, *kom*, *mo*, *navisanda*, *navoh*, *ob*, *resh*, *xirman//xirmon*, *xob*, *xoma*, *xonavoda*, *xonaqoh*, *xoharzoda*, *xurus*, *xurshed*, *chashm*, *choshni*, *chuhra*, *cho‘g‘z*, *shab*, *shabiston*; *vazirzoda*, *mavlonozoda*, *odamzoda*, *odamizod*, *sayidzoda*.

Sifatlar: *darveshvash*, *devonavash*, *dehdor*, *diqqatpesha*, *diloshub*, *dilpazir*, *dilpisand*, *dilraboyanda*, *dilfirib*, *dilxoh*, *durarbor*, *durbor*, *jahonoro*, *jahonso‘z*, *jongudoz*, *zarifvash*, *zarofatandesha*, *kobud*, *lavandvash*, *lavandsheva*, *laylivash*, *loubolivash*, *navohiy*, *nadimsheva*, *oshuftavash*, *oshuftaro‘zgor*, *oshuftasifat*, *oshuftasor*, *nuktapardoz*, *pursho‘r*, *ravonbaxsh*, *ravonso*, *rangomiz*, *ruhafzo*, *sabz*, *sarfarozi*, *sarxayl*, *sarchashma*, *safed*, *safihona*, *selob*, *siym*, *siyminbar*, *sipohisheva*, *sitamgar*, *sodavash*, *sumanbez*, *surx*, *tablboz*, *taxtgir*, *tundxun*, *fonivash\\foniyyash*, *foiniysifat*, *xazoni*, *xushgo‘y*, *xushmuhovara*, *xushnavis*, *xushnavoz*, *xushnud*, *shakarbor*, *shakarguftor*, *shakarrez*, *shikasta*, *shikof*, *shingarf*, *shirinash’or*, *shiringo‘y*, *shiringuftor*, *shoyista*, *sho‘xhang*, *eramoyin*, *yakqalama*, *yakro‘y*, *bebakra*, *badmaosh*, *badfe‘l*, *badxulq*, *beadabona*, *beedad*, *beaql*, *bevafo*, *bevosita*, *benazir*, *benasib*, *benihoyat*, *betaayyun*, *betaamul*, *betakalluf*, *betob*, *betoqat*, *befoyda*, *behad*, *behayo*, *behol*, *olamgir*, *mavolivash*, *musulmonvash*, *mushkulkusho*, *odamivash*, *odamisheva*,

tabibsheva, g'amgin, g'amkash, habissheva, havasnok, hazlomez, hamroz, hamsabaq, hamuldara, hozirona (110).

3. Yordamchi so‘z turkumlari va undovlar: *base zih i ari*.
4. Sonlar: *yak, du*.
5. Harakat nomlari: *justijo‘ sarzanish fitkratandish, shabixun shustusho‘ shukufta*.
6. Olmoshlar: *nachand, chand*.
7. Fe’llar: *raft, xez*.

Ro‘yxatdan ko‘rinib turibdaki sifatlarning miqdori barcha turkumlaridan ustun turadi. Forsiy sifatlarning Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida ko‘pligining sababi shundaki muallif o‘z asarlarida o‘zbek an’anaviy uslubini saqlashga intilgan. Bu uslubning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri esa badiiy sifatlashning hamisha hatto ba’zan mazmundan ham ustunligidadir. Badiylikning asosiy omillaridan biri sifatlash bo‘lib bunda belgi ma’nosini ifodalovchi sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asarida ham forsiy sifatlar keng o‘rin olgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlari nuqtai nazaridan eskirgan deb sanaladigan bu so‘zlar Alisher Navoiy uslubi uchun zaruriy omil bo‘lgan.

Mumtoz adabiyotimizni ham sotsialistik realizm mezonlari asosida belgilashga intilgan sho‘ro adabiyotshunosligida ko‘pincha sharq mumtoz adabiyotining bu bosh omili inkor qshganar edi. Keyingi davrlardagina o‘zbek adabiyotshunosligida adabiyotimizda bosh omil nimani ifodalash emas qanday ifodalash masalasi ekanligi qo‘yilmokda.

1.3. Arabiy so‘zlar qatlami

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida qo‘llan 1661 ta arabcha so‘zdan 603 tasi HO‘T uchun eskirgan so‘z sifatida O‘TILDAN joy olmagan. Bu so‘zlarni muayyan otlar (a) mavhum otlar (o) sifatlar (v) ravish (g) son (d) yuklama (ye) larga ajratish mumkin:

a) *anasir da'vat jazim zavraq marqad nabiya naxl nubuvvat tabl mahafa tarrah xazana xayl hisar; abdol, abkor, abluk, abno, abr, abyot, adab, adam, adil, adl, aflok, afozil, afsona, afzo, afzun, ahfod, ahkom, ahyonan, ahz, ajil, ajz, ajzo, akmal, akobir, alayhi, alfoz, alhaq, amiyq, amjod, amorat, amsol, anbiyo, anbuh, anjum, anoniyat, anvar, anvor, aqso, arabiyat, arbada, arjuman, arkon, arsh, arzol, arzoniy, as'hob, asfar, ashir, ashrof, asil, asnof, atfol, atibbo, atiq, atka, ato, atorud, atrok, avoriz, avqof, avqot, avroq, avsot, axfod, axtar, azimat, azl, ba'dazin, bade'ado, badr, bahl, baliyat, bayzo, bazl, big'ayrihi, billoh, bilodi, biym, bizoat, bodiya, borakalloh, boriy, buq'a, burudat, da'bi, dabir, daqiqtab', daqoyiq, darj, darun, e'lom, e'tidol, e'tikof, fahsh, farid, farog', fasih, fasl, fasohat, fasohatshior, fasona, fatton, favoyid, favt, fazl, fazliyot, fazoyil, filhaqiqat, filhol, filjavob, filjumla, filloh, filvoqe', fiqh, firdavsi, firdavstazyin, firifta, firosh, fitrat, foniysifat, fozil, funun, fusun, futur, fuyuz, fuzalo, fuzul, fuzun, g'alat, g'alton, g'ariba, g'ariq, g'ariyq, g'arobat, g'arro, g'ayb, g'aybat, g'aybiy, g'azni, habis, habit, hadas, hadd, hadiqa, haqoyiq, harim, hariq, harvor, hasab, hasb, havoshiy, haysiyat, hazira, hazzol, hiffat, hirfa, hirqat, hisol, horis, hosil, hoziq, hukkom, hul'ya, humoy, humoyun, humrat, huqqa, huruf, huvaydo, huzabr, idbor, iddio, ifsho, ihonat, ihsos, ihtisob, iktisor, iktifo, iktisob, ilayhi, ilzom, imdod, imod, imodillat, imsok, imtilo, in-, inbisot, inhirof, inju, inqitu, intiqol, intisob, inzivo, iqomat, iqtisob, irfon, irshod, irsol, ishkamish, ishkol, ishratfizo, ishthor, ishtiboh, ishtig'ol, islohpazir, istehqoq, istid'o, istifoda, istig'for, istig'roq, istiloh, istilohat, istiqror, istitoat, istixroj, itnob, itoat, itabolud, ittihod, ixfoda, ixroj, ixtiro, ixtisor, ixtitom, iydgoh, iyodat, izhor, izofat, izom, iztirob, ja'l, ja'liy, jadd, jadidiy, jahonoro, jahonso'z, jald, jalo, jalodat, favorid, jaybi, jazaba, jibilli, jid, jinon, jongudoz, jonib, julus, jumlat, junun, juz, juvv, kaffa, kalol, kalom, kamand, kasir, kasrat, kavkab, kibar, kinoyat, kinoyatomez, kisvat, kitmon, kofir, kom, komil, kon, koshif, kotib, kudurat, kuhulat, kul, kulba, la'l, lafz, lahza, lajobj, lak, lamu, lang, langar, laqab, laqva, lat, latifoyin, latofat, latoyif, lavand, lillah, lof, lojaram, lol, lol-, l louboli, loyiq, loyuad, loyuhs, ma'bud, ma'dan, ma'dum, ma'fu, ma'lum, ma'raz, ma'zirat, ma'zul, mabhas, mabrur, madfan,*

madh, madoris, mafqud, mag'firat, mahdi, mahdiy, mahfuba, mahjur, mahkama, maholat, mahzun, majlisoroy, majma, majolis, majoz, makman, makrumat, maks, malolat, mamduh, mamlu, mamluk, mamolik, manqabat, maob, maobiy, maof, maoliy, maoniy, maqdam, maqdur, maqlub, maqta', maqtul, mar', maraq, maraz, marbut, mardud, marg'ub, margu, markab, marotib, marqad, mas'ud, mash'uf, mashmumot, mashog'il, mashohir, masluk, masnad, masnu', masoba, masof, masokin, mat'un, matla', matma, mav'iza, mav'izat, mavlud, mavoli, mavquf, mavrusiy, mavzun, maxmur, maxodim, maxzan, mayoba, mazbut, mazid, mehru, mehtar, misluha, moiniy, mosivolloh, moxalaqalloh, mu'jib, mu'tamad, mu'taqid, mu'tarif, mu'tariz, muaddab, muaddiy, muaddo, muarrif, muarro, muassir, muassirona, mubaddal, mubkiy, muboh, mubohat, mubohiy, mubohot, muboshir, mubtadiy, mudavvin, mudovamat, mufattih, mufavvaz, mufid, mufrit, mug'aylon, muhaqqar//muhaqqir, muhavvilot, muhib, muhlik, muhofiza, muhovara, muhovirot, mujallad, mujarrad, mujib, mujid, mujovir, mujtahid, mujtame', mukarrar, muknat, mukobara, mulonim, muloyamat, muloyim, muloyimat, multafat, munbasit, munfail, munharif, munir, munofis, munofiy, munoozaat, munqate', munqaviy, munsif, munxale', muolija, muosir, muovadat, muqaddasa, muqarrab, muqarrar, muqavi, muqtado, muqtazo, murattab, murg', murshid, murtakib, murtoz, musalsal, musannafot, musannif, musharraf, mushorun, mushorunilayh, mushrif, musin, musofirat, musohabat, musohib, musta'sal, mustag'alot, mustag'niy, mustag'raq, mustahsan, mustamand, mustaviy, mustavjib, mustavil, mustazhir, mutaaddid, mutaallaq//mutaalliq, mutaariz, mutaassir, mutaayyin, mutaazzir, mutabarruk, mutaboid, mutadayyin, mutadovilot, mutag'ayyir, mutahhir, mutakabbir, mutakabbur, mutakosir, mutallavvin, mutamakkin, mutaoqib, mutaraddid, mutasarrif, mutasavar, mutavajjh, mutavalli, mutavat, mutavattin, mutavori, mutavotir, mutavoze', mutaxanyila, mutazoid, mutoyaba, mutoyib, muttaayyin, muttafiq, muttanabbih, muttaqiy, muttasif, muvaffaq, muvallad, muxotab, muxovaraliq, muxtare', muxtaras, tuyassar, muzayyal, muzd, muzoyaqa, muztarib, nadimsheva, namudor, naqd, naqib, naql, naqshbandiya, natoyij, nauz, nav', nav'-zarofat, navoh, navohiy, navoyib, navras, navvob, naxl, nazar, nazir,

nazoyir, nigoriston, Nishopur, nishot, nishotfarso, nishtar, no'sh, nob, nobud , nodiran, nodon, nogah//nogoh, nohamvor, nomaqdur, nomavzun, nomuloyim, nomutananoziy, nomutanoh, noshoysta, nozil, nuqabo, obo, oboajdod, odamiy, odat, odmi, odob, ofarin, ofarinish, ofat, ofiyat, ofoq, oftob, ojiz, olam, oliy, oliyjoh, olloh, olloh-olloh, olufta, omfirib, omi, omin, omiy, omizish, orzu, oshufta, oshuftasifat, oshuftasor, oshuftavash, osoyish, otashnok.

6) *azimat, zarafat, za'f, iktisab, inkisar, inayat, kiyasat, mazhar, maymana, maysara, mubaddal, mubahat, malixuliya, muqatala, risalat, rihlat, sayha, tadarruk, tazarru', tafriqa, tarabnak, tulu', tu'ma, ubudiyat, uqba, favt, favq, fahma, shar(r).*

b) *asalat, aham, batinan, vahmnak, mannan, ma'ruz, mujmalan, munqati', murassa', musaxxar, mustag'raq, mutavajjih, mutaxayyir, muishxxas, muqavviy, muqayyid, xabis, xujasta, hannan;*

g) *hala;*

d) *arbaa;*

e) *lavlak.*

Alisher Navoiy asarlarida ishlatiladigan arabiylar so'zlardan bir qismi arabcha ko'plik shaklida bo'lib ularning birlik son shakli o'zbek tilida ishlatiladi. Masalan *avsof, avqof, ajzo, aloyiqot, anjum, as'hob, aflok, af'ol, ag'lol, ahkom, muluk, savolot, salotin, havadisot*. HO'T uchun eskirgan sanalayotgan bu so'zlar ham Alisher Navoiy asarlarining uslub talablari bilan xamda o'z davri ruhini berish bilan aloqadordir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, tarixiy ilmiy diniy qadriyatlarni tiklash munosabati bilan eskirgan deb sanalgan so'zlarning bir qismi qaytadan tiklanmoqda: *nubuvvat, nabiya, rihlat, uqba.*

1.4. Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarida qo'llangan dublet so'zlar

Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarida O'TILda qayd qilinmagan dubletlar ham uchraydi. Bular: *adil//adl , asil//asl, ato//ota, avvalgi//avvalg'i,*

ayog’//ayoq, chog’lik//chog’liq, diljo ‘ylug’//diljo ‘yluq, doyim//doim, ekan//ekan, erkan//erkin, gado//gadoy, iki//ikki, inilik//iniliq, jome//jome’, jumla//jumlat, ko ‘ngil//ko ‘ngul, madadkorlig’//madadkorliq, misra//misra’, mo ‘//mo ’y, mushkil//mushkul, musohiblig’//musohibliq, mutaallaq//mutaalliq, naqqoshlik//naqqoshliq, nogah//nogoh, nomurodlig’//nomurodliq, o ‘g ‘il//o ‘g ‘ul, o ‘ttiz//o ‘ttuz, odamiylik//odamiyliq, ortug’//ortuq, qarong ‘u//qaronqu, qasoid//qasoyid, qattig’//qattiq, quillug’//qulluq, sho ‘xlik//sho ‘xluq, shoirlik//shoirliq, tab ‘lik//tab ‘liq, taollo//taolo, tatabbu//tatabbu’, tavrlig’//tavrlik, tegra//tegru, tib//tibb, vayron//vayrona, vojib//vojub, xirman//xirmon, xubliq//xublug’, xulqlik//xulqluq, yigirma//yigirmi, yomonlik//yomonluq, yorlig’//yorliq, yorug ‘lik//yorug ‘lug’, zamon//zamona, zaxim//zaxm каби адабиёт тилимиздаги со‘злarning fonetik variantlaridir. Keltirilgan quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- a) qattiq va yumshoq o‘zakni farqlamaslik nadijasida yuzaga kelgan. Masalan: *avvalgi//avvalg ‘i, chog’lik//chog’liq, inilik//iniliq, naqqoshlik//naqqoshliq, odamiylik//odamiyliq, sho ‘xlik//sho ‘xluq, shoirlik//shoirliq* каби;
- b) o‘zlashma so‘zlardagi cho‘ziq va qisqa unlilar orasidagi farqni anglamaslik: *adil // adl, asil//asl, zaxim//zaxm*;
- c) portlovchiva sirg‘aluvchi undoshlarning qo‘llanish doirasidagi farqsizlik: *ayog’//ayoq, diljo ‘ylug’//diljo ‘yluq, madadkorlig’//madadkorliq, musohiblig’//musohibliq, nomurodlig’//nomurodliq, nomurodlig’//nomurodliq, nomurodlig’//nomurodliq, ortug’//ortuq, qarong ‘u//qaronqu, xubliq//xublug’* сингари;
- d) lablangan va lablanmagan unlilarni aralash qo‘llash: *ko ‘ngil//ko ‘ngul, mushkil//mushkul, o ‘g ‘il//o ‘g ‘ul, o ‘ttiz//o ‘ttuz, vojib//vojub*;
- e) hozirgi o‘zbek jonli tilida baravar qo‘llanadigan fonetik farqli so‘zlar: *ekan//ekan, doyim//doim, gado//gadoy, iki//ikki, vayron//vayrona, yigirma//yigirmi*;
- f) arab-fors tillarida ikki ko‘rinishda qo‘llanadigan so‘zlar: *jome//jome’, jumla//jumlat, misra//misra’, mo ‘//mo ’y, nogah//nogoh, qasoid//qasoyid, taollo//taolo, tatabbu//tatabbu’, tib//tibb*;
- g) qadimgi turkiy tilda ikki ko‘rinishda qo‘llangan so‘zlar: *tegra//tegru, iki//ikki* singari.

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asari leksikasining O‘TILga munosabatini kurib chiqib qat’iylik bilan shuni ta’kidlash mumkinki, bu leksika arab-fors va qadimgi turkiy tilda qo‘llangan so‘zлами o‘zida mujassam etgan murakkab lingvistik tizimli hisoblanib, o‘z davrining oliv tabaqali ulamo va fuzalolariga mo‘ljallangan degan xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birga, Alisher Navoiy o‘z davrining jonli tili imkoniyatlaridan ham unumli va samarali foydalangan. Shuning uchun ham bu asarni o‘qish shu davrda yashab ijod etgan ijod ahli haqida mukammal ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Nihoyat, Alisher Navoiy asarlari lug‘at boyligini tekshirish quyidaga ikki asosiy xulosa chiqarish imkonini beradi:

1. Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” asarini yaratishda uch til – arab, fors va turkiy tillar imkoniyatlaridan unumli foydalangan. Shuning uchun ham asar tilida qo‘llangan so‘zлarning qariyb 50 foizi o‘zlashma hisoblanadi.
2. Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asarida qo‘llangan, biroq O‘TILga kirmay qolgan so‘zлarning ko‘pligini asarni ko‘chirgan kotib tili bilan ham bog‘liq deyish mumkin. Chunki unda qo‘llangan fonetik farqli so‘zлarning ko‘pi singarmonizm bilan bog‘liq bo‘lib, Navoiy davrida lab uyg‘unligi buzila boshlagan bo‘lsa-da, tanglay uyg‘unligi qonuniyat sifatida mavjud edi.

1.5. Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida qo‘llangan onomastik birliklar

“Majolisun-nafois”da qo‘llangan onomastik birliklarni to‘rt guruhga ajratish mumkin:

1. Antorponimlar.
2. Asar nomlari.
3. Toponimlar.

Antroponimlar ikki guruhga bo‘linadi:

- a) shoirlar nomlari;
- b) shoirlarning hayoti va ijodi bilan bog‘liq shaxs nomlari.

1.6. Shoirlar nomlari

Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois”asari sakkiz majlisdan iborat. Unda 445 shoir haqida so‘z yuritilgan. Birinchi majlisda 43 ta, ikkinchi majlisda 90 ta, uchinchi majlisda 170 ta, to‘rtinchi majlisda 69 ta, beshinchi majlisda 21 ta, oltinchi majlisda 30 ta, yettinchi majlisda 22 antroponim qo‘llangan; sakkizinchi majlis Sulton Husayn Boyqaro g‘azallariga sharh hamda uning xarakter-xususiyatlarining madhiga bag‘ishlangan.

Asar tilida qo‘llangan antroponimlar o‘z izohlovchilari – indikatorlari bilan keltirilgan. Indikator *lotincha* indicator “ko‘rsatgich” degan ma’noni anglatib, u antroponimlarni til lug‘at boyligi tizimida o‘ziga xos alohida bir tizimga birlashtiruvchi vositadir.

Indikatorlar kishi ismlar tarkibida kelib, uni biror jihatdan xarakterlib, konnotativ ma’no ifodalaydigan ayrim so‘z yoki affiksoiddir. Kishi nomiga qo‘shiluvchi idikatorlarni ikkiga ajratish mumkin:

- a) ichki indikatorlar;
- b) tashqi indikarolar.

Ichki indikatrlar antroponim o‘zining insonga tegishli nom ekanligini o‘z-o‘zidan ko‘rsatib turadi: a) yozuvda ular bosh harf bilan yoziladi; b) ularning ma’lum bir nutqiy qurshovlarda voqelanishi (*Mazid tanburachining o‘g‘lidur*), ayollar ismgaga va erkaklar ismi bilan bog‘liqligi kabi.

Tashqi indikatrlar turli xil affiksoid bo‘lib, ular antroponimlar bilan birga qo‘llanadi.

Indikatorlar antroponimlarni ichki tarkibiy qismlarini, ichki tizimchalarini ajratishda va belgilashda eng muhim omildir. Kishi nomi bilan qo‘llanuvchi indikatolarni shartli ravishda uch guruhgaga ajratish mumkin:

1. Ayol ismiga xos antropoindikator.
2. Erkaklar ismiga xos antropoindikator.
3. Ayol va erkak ismiga qo‘shilishiga ko‘ra betaraf bo‘lgan indikatorlar.

Erkak ismlariga xos indikatorlarga *-bek*, *-boy*, *-shoh*, *-xon*, *-qul*, *-xo‘ja*, *-sher*, *-mirzo*, -botirlar mansub. Bu indikatorlar obrazlar xarakteri va

xususiyatini ochishda ularning odatlari xatti-harakatlarini baholashda muhim usulbiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarida antropo-indikatorlarning faqat erkaklar ismi bilan qo‘llanuvchi shakllari mavjud, lekin yuqoridagi usul asar tilida o‘z aksini topmagan. O‘zbek ismlari bilan iste’mol etiladigan bunday antropoindikatorlar nisbatan tilimiz taraqqiyotining keyingi davrlariga to‘g‘ri keladi. Eski o‘zbek tilida yuzaga kelgan antropoindikatorlar arab va fors tillarining ta’siri bilan vujudga kelgan. Shuning uchun ham ular suffiks emas, balki priffikslik xarakteriga ega, shuningdek, affiksoidlik xususiyati bu so‘zlarda hali mujassamlashmagan. Kishi ismlari bilan qo‘llanuchi izohlovchilar mustaqil so‘z formasiga egaligi bilan xarakterlanadi va u so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifoda etadi.

“Majolisun-nafois”da qo‘llangan antropoindikatorlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. *Mir* indikatorli antroponimlar: Mir Maxdum, Mir Islom G‘azzoliy, Mir Shohiy, Mavlono Muhammad Arab, Mir Muflisiy, Mir Yodgorbek, Mir Hoj singari.

2. *Mavlono* indikatorli antroponimlar: Mavlono Abdulvahhob, Mavlono Muhammad Arab, Mavlono Abdulqahhor, Mavlono Abdurazzoq, Mavlono To‘tiy, Mavlono Vaysin, Mavlono Sog‘ariy, Mavlono Fasih Rumiy, Mavlono Mashriqiy, Mavlono Havoyi.

3. *Shayx* indikatorli antroponimlar: Shayx Ozariy, Shayx Sadriddin Ravosiy, Shayx Kamoli Turbatiy, Shayx Abdullo, Shayx Najm.

4. *Xoja* indikatorli antroponimlar: Xoja Ismatullo, Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Xoja Muayyad Devona, Xoja Muayyad Mehna, Xoja Yusuf Burhon, Xoja Ahmad Mujallid, Xoja Musayyab, Xoja Kalon Bazzoz, Xoja Mansur.

5. *Sayid* indikatorli antroponimlar: Sayid Ali Hoshimi, Sayid Muslimiy, Sayid Hasan Ardasher, Sayid Quroza, Sayid Qutb Lakadang, Sayid Naqibiy, Sayid Xaziniy, Sayid Xanjar, Sayid Ahmad Mirzo, Sayid Muslimiy.

6. *Hofiz* indikatorli antroponimlar: Hofiz Ali Jomiy, Hofiz Sharbatiy, Hofiz

Muhammad Sultonshoh, Hofiz Jaloliddin Mahmud, Hofizi Sa'd, Hofiz Ali Jomiy.

7. *Pahlavon* indikatorli antroponimlar: *Pahlavon Darvesh Muhammad, Pahlavon Sulton Ali Go'shtigir, Pahlavon Husayn.*

8. *Shoh* indikatorli antroponimlar: Shoh Quli Uyg'ur, Shoh G'arib Mirzo, Shoh Badaxshon Pahlavon.

Demak, inson ismiga qo'shilib kelgan turli xil antropoindikatorlar shu shaxslarning jamiyatdagi mavqeい, o'mini voqelantirish uchun xizmat qilgan.

1.7. Shoirlarning hayoti va ijodi bilan bog'liq shaxs nomlari

"Majolisun-nafois"da ijodkorlarning hayoti va ijodi bilan bog'liq 287 ta shaxs nomi keltirilgan. Ular quyidagilar:

Imom Ali Muso ar-Rizo, Imom Faxr, Imom Muhammad G'azzoliy, Imomi Faxr, Iskandar, Islom, Ismatullo, Ismoil, Iso, Ja'far, Jaloliddin Rumiy, Jaloyir, Jamshid, Jo'gi Mirzo, Jomiy, Kamol, Kobuliy, Layli, Luqmon, Lutfiy, Mahmud Barlos, Majdiddin, Majnun, Malik Zavzan, Malikbek, Mansur, Mashhadiy, Mashrab, Masih, Mavlono Abdulqahhor, Mavlono Abdulvahhob, Mavlono Abdulvose', Mavlono Abdurahim, Mavlono Hakim, Mavlono Haydar, Mavlono Hoji Muarrif, Mavlono Hoji Muhammad Farohi, Mavlono Husayn Voiz, Mavlono Husayn Xorazmiy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Mashriqiy, Mavlono Muhammad Arab, Mavlono Muhammad Badaxshiy, Mavlono Muhammad Chohu, Mavlono Muhammad Omiliy, Mavlono Muin, Mavlono Nizomiddin Hiravin, Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Mavlono Qabuliy, Mavlono Sa'diddin Koshg'ariy, Mavlono Sayfiy, Mavlono Sharafiddin Yazdiy, Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy, Mavlono Shodiy, Mavlono Shohrux, Mavlono Sirriy, Mavlono Sog'ariy, Mavlono To'ti Turshizi, Mavlono Xoja Kalon, Maxdumiy Nuran, Mehna, Mir Maxdum, Mir Oqmalik, Mir Qosim, Mir Rafeiddin Husay, Mir Sadr, Mir Said, Mir Sarbarahna, Mir Shohiy, Mir Xusrav, Mironshoh Mirzo, Mirxon, Mirzo Ali, Mirzobek, Miyoni, Moniy, Muhammad Ali Ko'kaltosh, Muhammad Xalilning, Nizom ul-Mulk, Nizomiddin, Nizomiy, No'mon, Nur Saidbek, Nuriy, Osafiy, Ozariy, Pahlavon Muhammad Go'shtigir,

Piri Sesadsola, Qabuliy, Qivomiddin, Hazrat Shayx Abusaid Abulkayr,
Qosim, Qosim Anvor , Qutb Noyi, Rustam, Sadriddin Ardabiliy, Safoiy, Sakkokiy,
Salotin Xoja, Savdoiy, Sayid Hoshimi, Sayid Muhammad, Sayid Quroza, Sayid
Sharif, Sayid Xovandshoh, Sayyid Muhammad Nurbaxsh, Sebak, Shahob,
Sharbatiy, Shayx Abdullo Devona, Shayx Abu Said Abulkayr, Shayx Abusaid
Puroniy, Shayx Bahlulbek, Shayx Boyazid Ila, Shayx Kamol, Shayx Luqmon,
Shayx Nizomiy Ganjaviy, Shayx Said Loda, Shayx Salmon atka, Shayx Zayniddin,
Shayximbek, Shayxzoda Muhammad, Sheroziy, Shirin, Shiruya, Shohiy, Shohrux,
Shohrux Mirzo, Sodoti Musrih, Sog‘ariy, Suhayliy, Sulaymoniy, Sulton Abu Said
Mirzo, Sulton Iskandar, Sulton Malik Koshg‘ariy, Sulton Mas‘ud Mirzo, Sulton
Muhammad Boysung‘ur, Sulton Muhsin, Sulton Sohibqiron, Sulton
Sohibqirondek, Sulton Ya’qub, Sultoni Sohibqiron, Tabodkoniy, Temur, Udiy,
Ulug‘bek Mirzo, Umarshayx, Umed, Valibek, Vaysiy, Vomiq, Xalil Sulton, Xizr,
Xoja Abdulloh Ansoriy, Xoja Abdulloh Mehna, Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy, Xoja
Abu Nasr Mehna, Xoja Abulvafo, Xoja Afzaliddin Muxammad, Xoja Avhad, Xoja
Chilgaziy, Xoja Hamadoniy, Xoja Hofizning, Xoja Imodiddin Hasan, Xoja
Ismatulloh, Xoja Kusaviy, Xoja Muayyad Devona, Xoja Muayyad Mehna, Xoja
Muhammad Marvorid, Xoja Muhammad Tayobodiy, Xoja Nizom ul-Mulk, Xoja
Qanbar Xuroson, Xoja Rukniddin, Xoja Salmon Sovajiy, Xoja Xurd, Xoja Xusrav
Dehlaviy, Xojagiy, Xojai Dehdor, Xojai Jahon, Xudoydod, Ya’qub, Yah’yo,
Yaqiniy, Yodgor Mirzo, Yusuf Safoiy, Zayniddin, Zirih, ,

1.8.Majolisun-nafois”da qo‘llangan asar nomlari

«Abdolnama», «Ajoyib ud-dunyo» «Anis ul-oshiqin» «Asmoullo»
«Asroriy» «Badiiy» «Badoye’i Atoiyg‘a» «Bahoriya» «Bahrom va Gulandom»
«Bediliy» «Bulbul bila gul» «Vaqfiya» «Vali shaloin» «Vafoiy»
«Gavharshodbegim» madrasasi «G‘aribiy» «Go‘y va chavgon» «Gulshani roz»
«Daryoi abror» «Dahnama» «Devona» «Dor ush-shifo» «Javohir ul-asror»
«Javohir uttafsir» «Joniy» «Zayd va Zaynab» «Zamoniy» «Zafarnoma» «Zul-
bahrayn» «Zul-qofiyatayn» «Zulolin» «Iydiya» «Iskandarnoma» «Isfahon»

«Ixlosiya» xonaqohi «Kadud» «Kalomulloh» «kanz» «Kobuliy» «Kotib» «Kofiya» «Koshifiy» «Qasidai burda» «Qudsya» masjidi «Layli va Majnun» «Lama’ot» «Latofatnama» «La’liy» «Majma ush-shuar» «Majolis un-nafois» «Maqlubi mustaviy» «Maqsadi aqso» «Manozil us-soyirin» «Maxzan ulasror» «Mir’ot us-safo» «Munozara» «Muntaxab» «Musaviy» «Mutavassit» «Nasabnama» «Nafahot ul-uns» «Nisoriy» «Noma» «Nosir va Mansur» «Ohiy» «Piri Muammoiy» «Rayhoniy» «Rafiqiy» «Sabuhiy» «Savdoiy» «Sadr» «Sayfiy» «Sipohiy» «Siyar un-nabi» «Solih» «Suhoiy» «Tajnisot» «Tig’ va Qalam» «Tufayliy» «Tuffohiy» «Ulug‘bek Mirzo» madrasa «Fattohiy» «Fusus» «Xayol va visol» «Xalosiya» «Xamsa» «Xatmiy» «Xatoiy» «Xovariy» «Xolidiy» «Xumoriy» «Xusrav va Shirin» «Haft paykar» «Hulal» «Husn va ishq» «Chahorgoh» «Shabistoni xayol» «Shams va Qamar”, «Shohnoma» «Yusuf va Zulayho» singari.

1.9.Majolisun-nafois”da qo‘llangan toponimlar

Isfahon, Ixlosiya xonaqohi, Ulug‘bek Mirzo madrasa, Xalosiya, Chahorgoh Alanjaq, Amir Surx mazori, Andijon, Andxud, Arabiston, Arhang, Astrabod, Arhang, Badaxshon, Bahrobod, Balx, Bovard, Boxarz, Buxoro, Chahorjo‘y, Chechaktu, Chin, Domg‘on, Dubarodaron, Faqih Abullays, Farkat, Gozurgo, Halab, Hazrat Maxdumi Nuran madrasasi, Hind, Hiri//Hiriy, Hirot, Hisor, Xuroson, Iroq, Jo‘yan, Jom, Jurjon, Ka’ba, Kirmon, Ko‘hi Sof, Ko‘hi Sof, Koriz, Koxin, Kusav, Kushanj, Madina, Makka, Malik (joy nomi), Marv, Mashhad, Mehrobod, Misr, Molon, Movarounnahr, Muvajjah, Naku, Nishopur, No‘h Go‘ron, O‘ba, Oqsaroy, Ozarbayjon, Qazvin, Qorabog‘, Qorom, Qunduz, Quzot, Rum, Sabzavor, Safed, Samarqand, Saraxs, Saripul, Shahrisabz, Sheroz, Shibirg‘on, Shirvon, Shohrux Mirzo madrasa, Shom, Shug‘on, Siyiston, Tabas, Tabriz, Tanso‘fi, Toshkand, Turbat, Turkiston, Turshiz, Ukkosha, Xarjurd, Xito, Xojai Toq, Xolid Valid, Xorazm, Xovand, Xuroson, Yazd, Zova singari.

UMUMIY XULOSA

"Majolisun-nafois"ning lug'at boyligi анча кatta. Унда 4260 leksema кўлланган. Bundan 21,7 foizi (926) leksema turkiy o'zakli so'zlardir. Turkiy so'zlarining shunchalik miqdorda qo'llanishining asosiy sababi o'sha davrda eski o'zbek tilida nazmiy ijod uchun ilg'or anananing boshlanishini ko'rsatadi. Turkiy leksemalarning qo'llanishi chastotasini hisobga olsak matndagi umumiyl so'z qo'llanishining taxminan 22 foizini tashkil etadi. Alisher Navoiy asarlari leksikasining taxminan 50-60 foizi hozirgi kitobxon uchun notanish, шунинг учун ҳам «Мажолисун-нафоис» leksikasida 1264 so'z umumiyl leksemalarning atigi 30 foizi adabiy tilimizda ishlatilmaydi. Bu "Majolisun-nafois" асарининг тили кучли бадиийлик билан йўғрилган ва фозиллар фозили, олимлар олими тушина олиши учун мўлжалланган асар ҳисобланади.

"Majolisun-nafois" leksikasini qadimgi turkiy til leksikasi bilan qiyoslash asosida XIII asrdan keyingi eski o'zbek tili leksikasining boyishida qolgan guruh tillari muhim o'rinn tutgan degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Chunki «Majolisun-nafois» leksikasining sof turkiy TEQiga mansub 325ga yaqin so'z "Qadimgi turkiy til lug'ati" asarida qayd etilmagan. "Qadimgi turkiy til lug'ati"da asosan o'g'uz qarluq va uyg'ur guruh tillari leksikasi aks ettirilganini hisobga olsak «Majolisun-nafois»ning sof turkiy TEQ shuncha miqdordagi so'zning (ularning katta qismi keng iste'molli so'zlar) Q T L da yo'qligi sababi oydinlashadi; bu so'zlar QTLda to'liq aks ettirilmagan qipchoq guruh tillarining xususiy leksikasiga mansubdir. «Majolisun-nafois» leksikasi asosidagi bunday xulosa X.Doniyorovning morfologiya E.Umarovning fonetika va fonologiya bo'yicha chiqargan xulosalari bilan birlashtirilsa eski o'zbek tilining fonetik leksik va grammatik qurilishida bu tilning shakllanishi va rivojlanishida qipchoq unsurlari tarkibi va qipchoq etnik guruhlarining mavqeい haqida to'g'ri xulos alar chiqarish mumkin.

«Majolisun-nafois» leksikasini 4 tomli "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" bilan solishtirish bu lug'atning to'liq emasligini ko'rsatdi. U XV asr yozma yodgorliklari leksikasini taxminan 70-80 foizdan ko'p bo'lmasigan

miqdorinini o‘z ichiga olgandir. Buning yorqin misoli "Majolisun-nafois" dagi 926 turkiy so‘zdan 300 ga yaqinining NAILda uchramasligidir. Vaholanki, bu 960 leksemaning ko‘pgina qismi Navoiy asarlarida keng qo‘llaniladi.

"Majolisun-nafois" tilidagi turkiy leksemalar miqdorining Alisher Navoiyning "Lisonut-tayr" va Muhammad Solihning "Shayboniynoma" leksikasi bilan solishtirish ("Majolisun-nafois" da 13,7 foiz "Lisonut tayr" da 24 foiz. "Shayboniynoma" da 32,5 foiz) turkiy sўzlarning mikdori xар икки асардагидан анча паст эканлигини кўрсатади. Shunga таяниб, Алишер Навоий bu asarni XV asrning forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan shirlarning faoliyatiga bag‘ishlab yozganligi uchun o‘z davrining farzandi sifatida o‘sha davr an’analarini davom ettirib; o‘sha davr ruhig‘a mos ravishda arabcha murakkab ibora va so‘zlardan, fors-tojikcha nazmiy leksikadan keng foydalangan. Shunisi diqqatga sazovorki, "Majolisun-nafois" leksikasida birorta sinonimik qator yoki lug‘aviy ma’no guruqlarining bosh so‘zi (dominantasi) arabcha yoki fors-tojikcha emas. Sinonimik qatorlar lug‘aviy ma’no guruhlari turkiy so‘zlar atrofida qurshovni tashkil etadi. Bu Alisher Navoiyning turkiy til boyligidan keng foydalanilganligi - arabcha va forscha so‘zlar unga ko‘pincha turli ma’no nozikliklarini ifodalash ko‘tarinkilik ruhini berish uchun zarur bo‘lganligini ko‘rsatdi.

"Majolisun-nafois" leksikasini hozirgi o‘zbek tili lug‘aviy boyligi bilan taqqoslash orqali quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

I. "Majolisun-nafois" leksikasining katta qismini hozirgi o‘zbek tili so‘zlarini tashkil qiladi.

2. "Мажолисун-нафоис" лексикасининг бир qismi hozirgi o‘zbek shevalarida mavjud. Bu so‘zlar adabiy tilimizni boyitish uchun olimlar yozuvchilar shoirlarga muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi;

3. "Majolisun-nafois" dagi eskirgan so‘zlarning katta qismini adabiyot va uning sohalariga tegishli. Ular arab va fors tiliga tegishli leksik birliklar bo‘lgani uchun hozirgi davr o‘zbek kitobxoni uchun tushunarli emas.

4. Asarda katta miqdorda – 892 ta atamalar (21 foiz) ishlatilgan. Ularning 287 tasi (6,7 foiz) shaxs nomlari, 58 tasi (1,4 foiz) asar nomlari, 102 tasi (2,4 foiz)

joy nomlari va 445 tasi (12,8 foiz) shoirlarning nomlari hisoblanadi. Atamalarning bunday katta miqdorda qo‘llanishi o‘shadavr antroponimlari va toponimlari haqida hozirgi davr tilshunoslariga ulkan ma’lumotlar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi 2012-yil 20-yanvar.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent 2008.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustfqillik ostonasida. Toshkent 2011. – Б. 400–403.
4. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi 2010-yil 30-yanvar soni.
5. “Xalq so‘zi” gazetasi 2010-yil 27-yanvar soni
6. Abdurahmonov G‘. Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: "O‘qituvchi" 2008.
7. Abdurahmonov G‘. Tarixiy sintaksis//O‘zbek tili tarixiy grammatikasi kursi bo‘yicha materiallar. Toshkent 1974.
8. Abdurahmonov G‘. Tarixiy sintaksis//O‘zbek tili tarixiy grammatikasi kursi bo‘yicha materiallar. Toshkent 1974.
9. Abdurahmonov G‘. Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. Toshkent 1984.
10. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 20 tomlig. XIV tom. Toshkent 2006.
11. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin//O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Toshkent 1989.
12. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. Toshkent 1983.
13. Devonu lug‘otit turk. Inleks-lug‘at (G‘.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida) Toshkent 1967.
14. Jumaniyozov. R. ."Qalam" so‘zining yozma adabiyotda qo‘llanilishi// O‘zbek tili va adabiyoti masalalari 1958.
15. Зияева М.Т. Исследование памятника XIV века "Китаб-ат-тухфатуззакия фил-лул-лотит-туркия". Дисс. канд. филол. наук Ташкент

1972.

16. Ishaqov F. Gulxaniyning "Zarbulmasal"asari. Toshkent 1976 -228.
17. Karimov A. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. Filol.fan. nom. diss. Toshkent 1973.
18. Matg‘oziyev A. XIX asr o‘zbek tilining morfologiyasi. Toshkent 1977.
19. Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. Toshkent 1950.
20. Muhammad Solih. Majolisun-nafois (Nashrga tayyorlovchi E.Shodiyev). // O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Toshkent 1990 - 336 s.
21. Nazarova X. Bobur asarlari uchun qisqacha lug‘at. Toshkent “Fan” nashriyoti 1973.
22. Devonu lug‘otit turk. 3 tomlik Toshkent 1960-1963.
23. Sodiqova M.S. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. Toshkent 1974.
24. O‘zbek adabiyoti. 4 tomlik. III tom. Toshkent 1959 -290 s.
25. O‘zbek adabiyoti. 4 tomlik. III tom. Toshkent 1959 -290 s.
26. Umarov 3. XV asr tilida unlilar//O‘zbek tili va adabiyoti 1982 № 6 -45-46.
27. Умаров Э. О гласных старсузбекского языка ХУ века//Советская тюркология № 5 1983.
28. Hasanov F. «Kelurnoma» Tashkent 1978.
29. Hafizova A. . "Kelurnoma" leksikasiga doir//O‘zbek tili va adabiyoti 1968 № 5 -s. 68-71.
30. Shomaqsudov A. Muqimi satirasining tiliga doir//Sharq yulduzi 1953 - S. 102-107.
Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. E.I.Fozilov tahriri ostida. I tom Toshkent 1983 -656 S. II tom. Toshkent 1983 -642 s; III tom. Toshkent 1984 -622 s. IV tom. 1985. -634 s.

ILOVA

**Alisher Navoiyning “"Majolisun-nafois"” asarida qo‘llangan so‘zlar
LUG‘AT- KO‘RSATKICHI**